



**O`ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIV VA O`RTA MAXSUS TA`LIM VAZIRLIGI
ANDIJON DAVLAT UNIVERSITETI
*Psixologiya kafedrasini***

O`sarova Muazzamning

*“5110900 Pedagogika va psixologiya” ta`lim yo`nalishi
bo`yicha bakalavr darajasini olish uchun*

**O`quvchilarni xalq og`zaki ijodi asosida
insonparvarlik ruxida tarbiyalashning psixologik
xususiyatlari**

mavzusida yozgan

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Ilmiy rahbar :

katta o`qituvchi G.Tojiboyeva

Andijon-2016

MUNDARIJA

KIRISH	3
I. BOB. O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK G`OYALAR MANBAI.	
1.1. Xalq og`zaki ijodi manbalarida pedagogik-psixologik fikrlar.....	6
1.2. Dostonlar etnopedagogika va etnopsixologiyaning muhim manbai sifatida.....	14
II. BOB. BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA INSONPARVARLIK TARBIYASI BERISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI (“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA)	
2.1. “ Alpomish ” dostonida insonparvarlik g`oyalarning psixologik omillari....	22
2.2. “ Alpomish ” dostonidan o`quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish.....	31
III. BOB O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODIYOTIDA BOLA DUNYOQARASHINI SHAKILLIANTIRSHDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR	
3.1. O`zbek xalq pedagogikasidagi dostonlar – insonparvarlik, do`stlik tarbiyasining psixologik vositasi	38
3.2 Boshlang`ich sinf o`quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash bo`yicha o`tkazilgan tajriba sinov ishlarining psixologik tahlili	45
Psixologik tavsifnoma	52
UMUMIY XULOSALAR	60
Foydalanilgan adabiyotlar	70
Ilovalar.....	72

KIRISH

O`zbek xalqi milliy istiqlolga erishgach, huquqiy demokratik jamiyat qurish uchun zamin yaratildi. Barkamol avlodni tarbiyalash vazifasi ustuvorlashdi. Bu jarayonda kelajak poydevori hisoblangan milliy istiqlol mafkurasiga tayanib ish ko`riladi. Odamlar orasida mehr-muruvvat, oqibat, do`stlik, hamkorlik, insonparvarlik, singari milliy qadriyatlar kuchayshiga imkon yaratildi. Prezidentimiz I.A.Karimov tomonidan 2004 yil “Mehr – muruvvat” yili, 2006 yil “Homiylar va shifokorlar” yili, 2007 yil esa “Ijtimiy himoya” yili deb e`lon qilinishi fikrimizning dalilidir. Har bir millat o`z taqdirini komil shahslarga topshirsagina kelajagi buyuk bo`lishi ta`minlanadi. Shuning uchun ma`naviyatni shakllantirish o`ta ma`suliyatli vazifadir.

Prezident I.A.Karimovning ta`kidlashicha, O`zbekistonning chinakam mustaqilligiga erishish uchun respublikani rivojlantirishning o`ziga xos xususiyatlari va shart-sharoitlarini har tomonlama hisobga olish zarur: “Avvalo u milliy – tarixiy turmush va tafakkuri tarzidan, xalq an`analari va urf odatlari kelib chiqadi. Kattalarni hurmat qilish, samimiylik, bag`rikenglik, ochiqko`ngillik, odmlarga hayrihohlik, o`zgalar kulfatiga hamdard bo`lish va o`zaro yordam tuyg`usi kishilar o`rtasidagi musosabatlar me`yori hisoblanadi. O`zbeklar diyoriga, o`z vataniga mehr–muhabbat, mehnatsevarlik, bilimga, ustozlarga, ma`rifat-parvarlikka” alohida hurmat – ehtirom O`zbekiston aholisiga hos fazilatdir. (6.2). Xalq ta`limi tizimida tub o`zgarishlar yuz berayotgan bugungi kunda islom ta`limoti, unga tayanilgan holda yaratilgan xalq og`zaki ijodi durdonalari yanada muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. “Ta`lim to`g`risida” gi Qonun “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi” (1997) va uning ikkinchi sifat boqichini amaliyotga to`lajoriy etishda ular yanada qimmatliroq tayanchga aylanmoqda. (Barkamol avlod– O`zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent. “O`zbekiston”, 1997y 7 bet., Davlat ta`lim standartlari, Toshkent “O`qituvchi” 1999y). Bu ta`limni ma`lum tizimga solish imkonini berdi. Ammo tarbiya borasida, ta`bir joiz bo`lsa, umumiy standart tizimlar ishlab chiqarishning imkoni yoq`. Unda har bir millatning

o`tmishiga, ajdodlar tajribasiga va o`gitlariga amal qilinadi. (O`zbek pedagogikasi tarixi. A.Zunnunov tahriri ostida. Toshkent, “O`qituvchi” 1997. 10-bet).

Mavzuning dolzarbligi: Yosh avlodni komillik darajasiga ko`tarishda xalq o`g`zaki ijodidagi badiiy to`qima istiqlol davrida ham namuna bo`la oladi. Ayniqsa, dostonlar bu borada muhim ahamiyat kasb etadi. Dostonlar tarbiyaviy va ma`rifiy ahamiyati shu bilan belgilanadiki, ularda tarbiya manbalari va vositalari yaqqol ko`zga tashlanib turadi. Dostonlarda tasvirlangan yuksak insoniy fazilatlar, milliy-ma`naviy qadriyatlar, urf-odatlar, ilmiy pedagogik tahlil etilsa, barkamol avlod shahsiga ijobiy ta`sir etuvchimuham tarbiya vositasi bo`la olishi mumkin. Ming yilligi yaqin o`tmishda nishonlangan “Alpomish” dostoni ana shunday manbalardan biridir. Istiqlol bergan ne`mat – ozod hur, farovon turmushni asrab avaylash, ardoqlash, qadriga yetish, uni himoya qilish tayyor turish, olamda o`zbekona insonparvarlini tarannum etish darkor bo`lgan hozirgi davrda xalq pedagogikasini amaliyotga joriy etish ta`lim tarbiya samarasini oshirishga xizmat qiladi. Mazkur tadqiqotning dolzarbligi yuqorida bayon etilgan omillar bilan izohlanadi.

Bitiruv malakaviy ish maqsadi: “Alpomish” dostonida tasvirlangan badiiy obrazlar bilan bo`g`liq voqea hodisalar silsilasi vositasida boshlang`ich sinf o`quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashga oid zarur ilmiy-pedagogik tavsiyalar ishlab chiqish.

Bitiruv malakaviy ishning obyekti: Boshlang`ich sinflar o`quvchilariga milliy tarbiya, uning zahirida insonparvarlik tarbiyasini, dostonlar vositasini yo`lga qo`yish jarayonini o`z ichiga oladi.

Bitiruv malakaviy ishning predmeti: Xalq og`zaki ijodi asosida o`quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashning mazmuni, shakl-usullari, vositalari, yo`llari va psixologik xususiyatlari.

Bitiruv malakaviy ishning vazifalari: “Alpomish” dostoning boshlang`ich sinflar o`quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalashda tutgan o`rnini ilmiy pedagogik tahlil etish, o`quvchilarda insonparvarlik sifatlarining shakllanish jarayoniga “Alpomish” dostoni vositasida pedagogik ta`sir ko`rsatish omillarini

belgilash: – “Alpomish” dostonidagi badiiy obrazlarga hos insonparvarlik sifatlaridan boshlang`ich sinf o`quvchilarini tarbiyalashda foydalanish imkonini aniqlash;

– Dostondagi insonparvarlikni madh etuvchi zarur matnlarni ilmiy pedagogik tahlil etish;

– Sinfdan va maktabdan tashqari pedagogik jaraonda “Alpomish” dostonidan o`quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash imkonini ko`rsatib berish.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy fazasi: Agar boshlang`ich sinflar o`quvchilariga insonparvarlik tarbiyasi “Alpomish” dostoni vositasida singdirilsa, kelajagi buyuk O`zbekiston uning xalqi uchun xizmat qiladigan barkamol avlod tarbiyasini samaraliroq tashkil etish mumkin va bu davr talabidir.

Bitiruv malakaviy ishning metodologik asosi: Falsafaning shahs son ongini tarbiya vositasida o`zgartirish mumkinligiga oid uning qonuniyatlari, davlatimizning prezidenti I.A.Karimovning xalq ta`limiga oid qaror va farmonlari buyuk, allomalarimizning pedagogik qarashlari va ta`limotlari kabilar hisoblanadi.

Bitiruv malakaviy ishning ilmiy yangiligi: “Alpomish” dostoni vositasida boshlang`ich sinf o`quvchilarga samarali insonparvarlik tarbiyasi berish yuzasidan takliflar ishlab chiqadi.

Bitiruv malakaviy ishning amaliy ahamiyati: Respublikamizda xalq ta`limini islohotlarini kkinchi bosqichi boshlangan hozirgi davrda boshlang`ich sinf o`quvchilariga insonparvarlik tarbiyasi berish samaradorligini “Alpomish” dostoni vositasida amalga oshirishdan iborat. Ushbu bitiruv malakaviy ishimizdan boshlang`ich ta`lim fakulteti talabalari va o`qituvchilari amaliy mashg`ulot hamda darslarda keng foydalanishlari mumkin.

Bitiruv malakaviy ish kirish, uch bob, olti paragraf, umumiy xulosalar, foydalanilgan adabiyotlar ro`yxatidan hamda ilovalardan iborat.

I. BOB. O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODI PEDAGOGIK-PSIXOLOGIK G`OYALAR MANBAI

1.1. Xalq og`zaki ijodi manbalarida pedagogik-psixologik fikrlar

Xalq pedagogikasi asrlar davomida keng xalq ommasi tomonidan yaratilgan nodir pedagogik durdonalardir. Etnopedagogik-etnopsixologik asarlar, avvalo biror xalqqa hos odatlar tizimi, tarbiya jarayoniga empirik yondashuv va qarashlar majmuidir. O`zbek xalqi pedagogik qarashlarda xalqimizning ta`lim-tarbiya, ahloq-odob, ilm-fan haqidagi ko`p yillik boy tajribalari ifoda etilgan bo`lib, ular “Xalq og`zaki ijodiga kiruvchi turli janrlardagi asarlar” da bizgacha yetib kelgan. (Hoshimov K., Ochilov S., O`zbek pedagogikasi atamasi. Toshkent. 1995. 11-bet). Ko`hna Sharq pedagogikasining ajralmas qismi hisoblangan o`zbek xalq pedagogikasi hisoblangan bir necha ming yillik tarixga ega. Xususan, xalq pedagogikasi durdonalari jamiyatda hali yozuv paydo bo`lmasidan ancha ilgari vujudga kelganligini, avlod-dan-avlod, og`izdan-og`izga o`tib, asrlar osha sayqal topib, takomillashib, kelganligini alohida ta`kidlash zarur. Oqinlar, baxshilar, shoirlar va oddiy xalq vakillari mahorat bilan kuylagan, avom xalqining sevimli ma`naviy-ahloqiy mashg`uloti, tarbiya manbaiga bo`lib kelgan. Etnopedagogika-etnopsixologiya tasarrufiga kiruvchi durdonalar jumlasiga dostonlar, ertaklar, rivoyatlar, hikoyalar, afsonalar, topishmoqlar, maqollar, matallar, aytishuvlar, tortishuvlar, o`lanlar, latifalar, yallalar, chorlashmalar, ovutmachoqlar, bolalar o`yinlari, sanamlar, cheklanmalar va boshqalar kiradi. Xalq o`z badiiy og`zaki ijodi orqali bolalarni go`daklikdan nutqqa o`rgatadi. So`z, nutqning sehrini anglashga, shirinsuhanlikka, ma`naviy-ahloqiy fazilatlarni shakllantiradi. Masalan, qadimiy meros jumlasiga kiruvchi “Alla” orqali bolalarga ilk bor shirin so`z, mayin nutqini tinglash o`rgatiladi. “Allaning mantlari” standart qolipga solinmagan bo`lib, uni har bir ona o`z ichki kechinma, hissiyoti vositasida to`qiydi. Bunda onalarning so`z tanlash qobiliyati alohida ahamyat kasb etad

Hoshimov K., Ochilov S., O`zbek pedagogikasi atamasi. Toshkent. 1995. 11-bet

Shu sababli uning matni xilma-xil bo'lsa ham, allaning har bir turi og'zaki nutq ijodi bo'lib, bolalarda yaxshi kayfiyat, insonparvarona muloqotga intilish, onaning nutqini, uning zamirida onalik g'amxo'rliqi, his-tuyg'usini tushunish istagini yaratadi.

Masalan:

Alla aytay, jonim bolam orom olgin, alla

Shirin allam tinglab asta, uxlab qolgin alla

Alla aytib uxlatayin, alla qo'zim, alla

Gunohi yo`q, norasidam, alla bolam, alla

(Nabiyev S., Qodirov Q.B., To'rayev N. Y, va b. Tahriri ostida. Xalq pedagogikasi. Toshkent: Universitet nashriyoti -1998. 312-bet).

Xalqning madaniy qadriyatlari, ma'naviy merosi ming yillar mobaynida Sharq xalqlari uchun qudratli ma'naviyat manbai bo'lib xizmat qilgan. Uzoq vaqt davom etgan qattiq mafkuraviy tazyiqqa aramay, O'zbekiston xalqi avloddan-avlodga o'tib kelgan o'z tarixiy va madaniy qadriyatlarini hamda o'ziga hos an'alarini saqlab qoldi (Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfzilikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari" Toshkent, "O'zbekiston", 1997 yil. 137 bet).

Ana shu saqlab qolingan madaniy qadriyatlar va meros tarkibida xalq pedagogikasi durdonalari ham mavjuddir. Xalq og'zaki ijodiyoti namunalaridamda uning turli janrlarida azolarning ozod va farovon hayotga intilishlari, haqsizlik va adolatsizlikka qarshi o'tkir raqib keskin nafrati xalq donishmandlariga hos badiiy bo'yoqlarda ifodalanadi. Ularda oila va bola tarbiyasi, kelin-kuyov madhiyasi va boshqalarga hurmat kabi qator muammolar qanday hal etilganligi ulug'lanadi. Xalq og'zaki ijodi namunalarini ilmiy-pedagogik tadqiq etish, ularda olg'z suilgan muhim g'oyalarni umumlashtirish va ulardan yosh avlodni tarbiyalashda yo'qolib borayotgan kamyob insoniy qadriyatlarni tiklashda, umumta'lim maktablari

Karimov I. A. "O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: havfzilikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot shartlari" Toshkent, "O'zbekiston", 1997 yil. 137 bet

ta'lim-tarbiya ishlarida samarali foydalanishga yo'llash o'zbek xalq pedagogikasi oldida turgan muhim vazifalardir. Chunki, o'zbek xalqi ham boshqa xalqlar qatorida uoq tarixiy taraqqiyot davomida san'at adabiyot durdonalari timsolida ijtimoiy taraqqiyotga jahon madaniyati va pedagogikasi ilmi taraqqiyotga munosib hissa qo'shgan xalqimiz ma'naviy madaniyatning ulkan va ajralmas qismini tashkil etgan xalq og'zaki ijodiyotining noyob manbalariga egadir. Qadimgi va O'rta asrlarda yaratilgan "Iliada", "Odisseya", "Roland haqida qo'shiq", "Mahobhorat", "Ramayana", "Igor jangnomasi" va "Shohnoma" kabi asarlar teng kela oladigan va undanda qiziqarli, hissiyotli o'zbek xalq dostonlari, qoshiqlari, maqol va matallari, topishmoqlari, latifalari borki, ular xalq pedagogikasining bebaho boyligidir.

Respublikamizning Prezidenti I. A. Karimov ta'kidlaganidek: "Biz sog'lom avlodni tarbiyalab, voyaga yetkazishimiz kerak. Sog'lom kishi deganda, faqat jismoniy sog'liqni emas, balki sharqona odob-axloq va umumbashariy g'oyalar ruhida kamol topgan insonni tushunamiz" (Karimov I. A. O'zbekiston siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyilidir. Toshkent. "O'zbekiston". 1995 yil. 57 bet).

Ta'limning insonparvarlik va xalqchilik tamoyillari Respublikada o'quv tarbiya jarayonida o'zbek xalq pedagogikasini tarbiyaviy imkoniyatlardan keng foydalanishni taqozo etadi. Maktablarimizdagi ta'lim-tarbiya, maqsad-vazifalaridan kelib chiqib, pedagogik jarayonlarni o'quvchi uchun qiziqarli, zamon ruhiga hamohang tashkil etish, mazmun mohiyatiga milliy qadriyatlarni singdirish (o'quvchilar ongiga), o'qituvchilar oldidagi muhim vazifadir. Xalq pedagogikasi o'zining teran ildizi va qudratli manbalariga ega bo'lib, ular zamonaviy maorif tizimi pedagogika nazariyasi va tarixi, ta'lim tarbiya metodlari uchun mustahkam poydevor vazifasini o'taydi. Inson, uning shaxsi va mohiyati, moddiy va ma'naviy hayoti, hamda barkamollik ko'rsatkichlari bir necha ming yillar davomida bahs va munozaralarga sabab bo'lib kelayotgan ilmiy muammodir. Inson, insoniya va

Karimov I. A. O'zbekiston siyosiy ijtimoiy va iqtisodiy istiqbolning asosiy tamoyilidir. Toshkent. "O'zbekiston". 1995 yil. 57 bet

insoniylik triadasi (uchligi) bugun va erta o'z yechimini kutayotgan ijtimoiy falsafiy masala hamdir. Ilm-fan taraqqiyoti tufayli u o'z jismini tobora tugalroq o'rgana bordi, kishilik jamiyati deb atalmish sotsial majmuaning sir-asrorlarini anglab yeta bordi. Bu borada shaxs va jamiyat munosabatlari dialektikasi ng dolzarb muammo bo'lib turibdi. Dastlab, shaxsni mukammallik darajasiga ko'tarish orqali shu muammoni hal etish mumkin.

Inson shaxsini tabiiy-ijtimoiy jihatdan tog'ri baholashga xizmat qiluvchi yangi ilmiy yo'nalish etalogiya fani inson avlodini ikki tarafdin: organik olam evolutsiyasining oliy mahsuli va inson qo'li bilan yaratilgan ma'naviy-madaniy muhim ishtirikchisi sifatida talqin qila boshladi. Oqibatda shaxs kamoloti va pedagogika muammolari oz'gacha yechimlarga ega bo'lib bormoqda. Binobarin, inson jonli mavjudot shajarasidagi mukammal individ tarzida genetik nuqtai-nazardan noxush hatti-harakatlar zahirasiga doim ega bo'ladi. Uni mukammal sotsial a'zoga aylantish uchun bugungi kunda pedagogika va psixologiyaning mumtoz tavsiyalarini ijodiy isloh qilishga to'g'ri keladi. Biroq bunday yangilanish epkini dialektikaning umimiy va obyektiv qonunlari doirasida sodir bo'lmog'i zarur. Xuddi shu asnoda xalq pedagogikasining tarixiy va nazariy masalalari ham evolutsion yondoshuvni taqozo qilidi. Insonda tabiiy va ijtimoiy munosabatlarning o'zaro nisbati uning organizmida kechadigan fiziologik, biologik jarayonlar bilan ijtimoiy munosabatlarning oz'ro nisbatidan iboratligiinobatga olinsa, ta'lim-tarbiyaning an'anaviy va tarix shakl-shamoillaridan tog'ri foydalanish imkoni ortib boradi. Bu jarayonda xalq og'zaki ijodi muhim ahamiyat kasb etadi. Og'zakilik – xalq ijodiyotining yaratilishi va yasash tarzidir. Chunki, u ham yozuv kashf qilinmagan davrlarda yashagan ajdodlarimizning dunyoqarashi va e'tiqodining kurashi va mag'lubiyatining ifodasi sifatida yuzaga keladi. Etnopedagogika-etnopsixologiya asarlari o'zining xalqchiligi, chuqur mazmuni, hayotiyiligi, til va uslub ravonligi, badiiy va tarbiyaviy ta'sirchanligi bilan xarakterlanadi. Etnopedagogik manbalarning eng xarakterli xususiyati shundaki, ular syujeti, sirli hodisalar, g'aroyib obrazlarga

nihoyatda boy bo'lishi va har bir bola uchun yangi bir olam hisoblanishi etiborni o'ziga tortadi. Ularning tili, uslubi juda sodda va ravon bo'lganligi uchun ham ommabop va hamma uchun tushunarlidir. Shuning uchun xalq og'zaki ijodining barcha jarayonlari yoshlarni ma'naviy-axloqiy pok, jismoniy, barkamol qilib tarbiyalashda qudratli vosita hisoblanadi.

Binobarin, biz pedagog qarashlarini o'rganayotgan buyuk ajdodlarimiz – Beruniy, Devoniy, Kaykovus, Koshifiy, Navoiy, Ibn Sino, Mahmud Qoshg'ariy va boshqalar o'z asarlarida etnopedagogik manbalardan ijodiy foydalanib, ajoyib samaralarga erishganlar. Etnopedagogika-etnopsixologiyaning ta'lim-tarbiyaviy ahamiyati Z. M. Mirturusov, B. O. Qodirov, S. T. Temirova kabilarning tadqiqotlarida ochib berilgan. Ammo, bu epik asarlarning pedagogik xususiyatlari to'ki sohib berilmagan. Jumladan, "Alpomish" dostoni ham shunday manbalar sarasiga kiradi. Uning o'ziga hos qirralarini o'rganish, tadqiqi etish, nazariy va ilmiy jihatdan asoslash hamda pedagogic amaliyotda tadbiiq etish masalalari oz' yechimini kutayotgan dolzarb muammolardan hisoblanadi. Xalq pedagogikasi vositasida uni yaratgan xalqning turmush tarzi, ma'naviy-axloqiy sifatlari, urf-odatlar, an'analari, marosimlari, ma'naviy va umuminsoniy qadriyatlar, diniy e'tiqodlar, ozodlik yo'lidagi kurashi, vatanparvarligi, o'zaro hamkorlik, jangovorlik, hamjihatlik hislatlarini shakllantirish va rivojlantirish sohasida orttirilgan boy tajribalari avloddan-avlodga o'tib bizgacha yetib keldi va hozir ham ma'naviy boylik sifatida xizmat qiladi.

Jamiyatning moddiy asosi hisoblangan, halol mehnat azal-azaldan ulug'lanar ekan, xalq pedagogikasi manbalarida ham unga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun yoshlarga mehnat tarbiyasi berishda ular muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi. O'zbek xalqi azldan mehnatkash xalq. U mehnatni jamiki boyliklarning asosi deb biladi. Shuning uchun u mehnatni ulug'laydi, mehnat ahlini ezozlaydi, yoshlarni mehnatsevarlik ruhida tarbiyalashga intiladi. Ota-bobolarimiz va momolarimizdan bizgacha yetib kelgan, rivoyat, ertak, topishmoq, qo'shiq va xalqning boshqa og'zaki ijod namunalari ijod tarbiyasiga bag'ishlangan. Ularda mehnat va hunar ahli har doim g'alaba qiladi, maqsadga erishadi.

Aqliy tarbiya – xalq pedagogikasida mudom diqqat markazida bo'lgan. Ularda ilmga rag'bat ko'rsatish, uni ulug'lash, har qanday mashaqqatlarga qaramasdan uni egallashga undashyetakchi g'oya bo'lgan. Ilm egallashda savodli, sabr-bardoshli bo'lishiga, ilm ahlini ulug'lash, ularga hurmat-ehtirom k'rsatishga chaqirilgan. Bolaga ilmni yoshligidan o'rgatish va unga zukko ustozlar ta'limini berish egallagan bilimni yo'qotmaslik, aksincha uni yanada takomillashtirish, mashq qilish orqali songmas ko'nikma va malakaga aylantirish tavsiya etiladi. Ilmi zo'r kishi bilagi zo'r insondan ming chandon ustunligi ta'kidlanadi. Ilm va hunar ahlining qilgan tarbiyalari tufayli jamiyat hayotiga taraqqiyotga to'siq bo'lib turuvchi muammolar osongina hal etiladi. Uchar otlar, gilamlar, sehrli sandiq va dasturxonlar, oynai jahonlar timsolida buyuk milliy kashfiyotlar ming yillar avval orzu qilingan. Ilm ahli va donolar ma'naviyati, axloq-odobi yuqori pardalarda tarannum etilgan.

Ma'naviyat tarbiyasi – xalq pedagogikasida eng yuqori o'ringa qo'yilgan. Xalq qahramonlari tasvirlangan asarlarida ijobiy obrazlar har doim o'zligini chuqur anglagan, o'zining o'z xalqining yurti va vatani qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'ygan. O'zi qon-qarindoshlari, el-yurti Vatani shaniga dog' tushuruvchi elatlarga qarshi kurashgan, ba'zan mardlarcha halok bo'lgan. Shu boisdan bunday qahramonlar o'limdan keyin ham xalq xotirasida abadiy saqlangan. Ularni ulug'lovchi yangi afsonalar, dostonlar to'qilgan.

Axloqiy tarbiya – xalq og'zaki ijododa tarbiyaning milliylik xususiyati bilan chirmashib ketgan. Tarbiyaning bu asosiy yo'nalishi ijobiy va salbiy sifatlar talqinida chog'lashtirilib, qiyoslab talqin etiladi. Oqibatda o'quvchi va tinglovchida ijobiy-axloqiy sifatlarga muhabbat, salbiy-axloqiy sifatlarga nafrat hissi tarbiyalanadi. Zarur (pedagogik) ahloqiy sifatli personajlar duch kelgan vaziyatlar misolida yoshlar uchunibrat vazifasini o'taydi.

Jismoniy barkamollik- Etnopedagogika-etnopsixologiyada barcha

yunalishlarda yuqori o'ringa qo'yiladi. Ijobiy personajlar o'tda yonmas, "tegirmonga tushsa butun chiqadigan" darajada zuvalasi pishik, dunyoga kelgach, tez kamol topuvchi, mohir jangchi, tengi yo'q pahlavon, mergan, bilagi va aqli zo'r, mehnatsevar, tinib-tinchimas obrazlar tarzida bayon etiladi. Ulardan insonparvarlik sifati har doim yuqori turadi. Insonparvar kishilar xalq orasida obro'-e'tiborli bo'ladi. Ular nafosatni sevadi. Go'zallikni asrab kolish uchun kurashadi.

Iqtisodiy va ekalogik tarbiya- borasida ularda zarur sifatlar shakllangan bo'ladi. Tadbirkorlik tufayli kam sarfiyotlar evaziga ko'prok natijalarga erishildi. Unumli mehnat qilish, xalq boyligini asrash, uni ko'paytirishga g'amxo'rlik hissi, ularning doimiy hamrohi bo'ladi. Tabiatni asraydi, uni go'zalroq qilishga intilib yashaydi.

Vatanparvarlik tarbiyasi- xalq pedagogikasining bo'lagi bo'lib, uning barcha janrlarida Vatan inson uchun eng oliy ne'mat ekanligi ta'kidlanadi, ona kabi muqaddas zaminni qo'riqlash, asrash, uning sha'nini himoya qilish, shon-sharafga burkash ijobiy personajlar uchun har doim bosh maqsad hisoblanadi. Vatanparvarlik dostonlar, ertaklar, afsona va rivoyatlarning bosh mavzusi hisoblanadi.

Insonparvarlik tarbiyasi- xalq pedagogikasida qarindoshlikning bosh bug'ini, -"Ona" atamasidan boshlanadi. Shu boisdan tarbiyaning boshi ham ota va ona tushunchalari bilan boglanadi. Aka-uka, opa-singildan tortib, yoru-birodarlar osha el, yurt, xalq bilan chirmashib ketadi. Ularning majmuasi Vatan tushunchasiga borib taqaladi. Shunga ko'ra insonparvarlik ma'naviy va axloqiy tarbiyaning o'zagi sifatida jamiyat a'zolari uchun eng zarur insoniy sifat qilib tasvirlanadi.

Xullas, xalq pedagogikasi xalqimizning qadr-qimmatini, orzu-havasi, o'zligini tanish, milliy urf-odatlarini kuylab kelgan. Xalq pedagogikasining eng yuqori g'oyalari-yosh avlodni aqliy va jismoniy etuk, ma'rifatli, ilmiy bilim va hunar o'rganishlarini mehnatsevar, umuminsoniy odob va axloqiy qoidalarni o'zida mujassamlashtirgan, estetik did va zavqi baland insonlar qilib etishtirish zarurligini doimo targ'ib qilib keldilar va bola kamolotida tarbiyaning o'rniga katta baho

berdilar. Bolalarning yaxshi tarbiya orqali ijobiy, yomon tarbiya oqibatida salbiy sifatlarga ega bo'lib etishlari mumkin degan qat'iy tushunchani ilgari surdilar. Xalq og'zaki ijodining o'lmas yodgorliklari tufayli milliy tarbiya bakuvvat, teran ildizlarga musharraf bo'lgandir. U eng qadimiy ma'rifat ummoni bo'lib, bu ummonda kuloch ochib suzaversak, yana minglab echilmagan muammo-yu, jumboqlar tug'ilaveradi. Gadoiy aytganlaridek: "Har kishining kim kishiga rahmi yo'q, imoni yo'q" (Hikmatlar xazinasi. To'plovchi: M.Azamatov. Toshkent, "Yosh gvardiya", 1997. 83-bet) ekan, Etnopedagogika-etnopsixologiyada ijobiy kahramonlarning hamisha rahm-shafqatli, insonparvar, mehr-muruvvatli tarzida tasvirlanishi insonparvar, iymonli yoshlarni tarbiyalashda muhim ahamiyat kasb etadi.

-Hikmatlar xazinasi. To'plovchi: M.Azamatov. Toshkent, "Yosh gvardiya", 1997. 83-bet

1.2. Dostonlar etnopedagogika va etnopsixologiyaning muhim manbai sifatida.

Dostonlar xalq og'zaki ijodining keng tarqalgan va yirik namunasi bo'lib, “doston ” so'zi qissa, hikoya, sarguzasht, ta'rif va maqtov ma'nolarida ishlatiladi.

Dostonlar xalq og'zaki ijodida o'lkamizning Samarqand, Surxondaryo, Qashqadaryo, Xorazm va Qoraqalpog'iston hududlarida qadimdan keng tarqalgan yo'nalishidir. Bu sarhadlarda baxshilar dostonlarni ehtiros bilan to'lqinlanib kuylab kelgan, xalq esa uni tarli marosimlarda sevib tinglagan. Shuningdek, har bir dostonning o'nlab muqobil variantlari yaratilgan. Ular asrlar osha sayqal topib, og'zaki holda bizga etib kelgan. Dostonlarda xalqning o'z boshidan kechirgan ijtimoiy-siyosiy voqealarning, etnik birlik va mustaqillik uchun olib borilgan kurashlarning tarixiy mohiyati badiiy bayon etilgan. Shunday qilib, dostonlar haqiqiy va ideal tarixni birlashtirib, chatishib ketgan olamshumul voqealarni tasvirlagan, xalqimizning axloqiy, falsafiy va diniy qarashlarini, hayotiy urf-odatlarini qomusiy bir tarzda ifodalagan o'tmish yodnomalaridir.

Dostonlarda tarixiy voqeyilik xalq fantaziyasi asosida umumlashgan obrazlarda o'z ifodasini topadi. Binobarin, ularda epik umumlashtirish xalqning ijtimoiy adolat haqidagi ideallari va orzu-umidlari bilan yo'g'rilgan.

Dostonlarda bidiiyatning muhim usullari – bo'rttirish, ulug'lash, olqishlash, chog'ishtirish, taqqoslash kabilar doston g'oyasining ta'sirchanlini oshiradi va shu yo'l orqali kishida zurrur ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga kuchli ta'sir qiladi. Dostonlar xalqning jamoaviy ijodkorlik mahsuli bo'lib, kishilarning talab va ehtiyojlari zamirida aql-zakovat bilan yaratilgan. Ular Etnopedagogika-etnopsixologiyaning o'ta muhim tarkibiy qismi sifatida odamlarning tasavvuri, dunyoqarashi, tafakkuri, orzu-armonlari, e'tiqodi va odob-axloq qoidalarini o'zida mujassam etgan, jamiyatning ijtimoiy taraqqiyotiga, uning ma'naviy-madaniy rivojiga katta hissa qo'shgan. Shu tariqa ular jamiyatning ham moddiy, ham ma'naviy boyligiga aylangan.

Dostonlarda xalq og'zaki ijodining boshqa janrlari singari xalq va millatning pedagogik g'oyalari, ta'lim va milliy tarbiya usullari, dunyoqarashi, komil inson tarbiyasiga munosabati va yondashuvlari, ruhiy kechinmalari, ma'naviy-axloqiy

ideallari o'ziga xos usullarda badiiy bo'yoq, jaydari falsafa, ibratli sifatlar, qiziqarli voqealar asosida tasvirlangan. Shuning bilan birga dostonlarda xalqning hayotiy tajribasi, milliy udumlar va an'analari,urf-odatlar, aqidalari, qisqasi, mahalliy xalqning hayot falsafasi bayon etilgan.

Etnopedagogik asarlar badiiy-pedagogik jihatdan yuksak takomilga ega ekanligi, ayniqsa, ular uchun tushuntirishga oson, idrok etishga qulay bo'lganligi tufayli, serqirra, keng qamrovli tarbiyaviy ta'sir vositasi hisoblanadi. Ular keng xalq ommasining hayot tajribalari va muammolari, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy-iqtisodiy, mafkraviy va madaniy qarashlar zamiridagi tajribalar, kuzatish xulosalari asosida vujudga kelgan. Ulardan chiqarilgan xulosalar yaxlit, aniq, ixcham, obrazli badiiy bo'yoqlar, qochirim va istioralar vositasida bayon etilgan. Etnopedagogik asarlarda xalqning hayotiy tajribalari, donishmandli, g'oyat kuchli tarbiyaviy ahamiyatga molik nasihatimiz fikrlari, milliy tarbiyaviy hamda axloq qoidalari silsilasi sodda, keng ommaga tushunarli tilda bayon etilgan.

Dostonlar falsafa, axloq, din, badiiy to'qima, fantaziya va botiniy tafakkurga asoslangan xalq donishmandligi mevasidir. (Hotamov N.H. O'zbek xalq ijodiyotida milliy qadriyatlarning ifodalanishi. Toshkent, "O'qituvchi", 1997. 14-bet)

Xalq og'zaki ijodining yirik namunasi hisoblangan dostonlarda umumbashariy qadriyatlar mujassam etilgan. Ularda xalqning turmush tarzi, rf odati va an'analari, marosim-udumlari, insoniy va ma'naviy qadriyatlari, diniy e'tiqodlari, orzu-istak va umid-niyatlari, istiqlol va hurriyat yo'lidagi mardonavor kurashlari, vatanparvarligi ishq-muhabbat yo'lidagi sabr-bardosh va sodoqati, kelajakka ishonch ommabop tarzda bayon etilgan. Bunday fikrlar isbotini "Alpomish", "Murodxon", "Kuntug'mish", "Orzigul", "Oysuluv", "Rustamxon", "Go'ro'g'li", "Shirin bilan Shakar", "Yakka Axmad", "Avazxon", "Vazxon va Bozirgon", "Balogardon" singari dostonlarda ko'rish mumkin. Bu kabi dostonlar,

Hotamov N.H. O'zbek xalq ijodiyotida milliy qadriyatlarning ifodalanishi. Toshkent, "O'qituvchi", 1997. 14-bet

avvalo, xalq pedagogikasining tarkibiy qismini tashkil etib, ularda oilaviy turmush muammolari, oilada farzand tarbiyasi, ota-ona va farzandlararo munosabatlar, kelin-kuyov ma'suliyati va burchi, yurtparvarlik, xayr-ehson, mehmonnavozlik, sof sevgi va sadokat, mardlik, jasurlik, kahramonlik kabi fazilatlar hamda shu kabi yana qator ma'naviy-axloqiy qadriyatlar ulug'langan. Misol tariqasida ushbu milliy qadriyatlarning bayon etilishini ba'zi dostonlar misolida ko'zdan kechiraylik.

"Shirin va Shakar" dostoni uzbek xalq Etnopedagogika-etnopsixologiyasining yirik namunasi bo'lib, unda oila va farzand tarbiyasi, oila a'zolari va kishilararo insonparvarlik munosabatlari, ota-onaning farzand tarbiyasi borasidagi ma'suliyati va burchi, farzandga nisbatan mehr-muruvatliligi muammolari bayon etiladi. Doston syujeti afsonaviy Kuyonki mamlakatining shohi Qosimxonning sakson xotinlaridan biri Butako'zdan bir o'g'il, vazirning xotinidan ham bir o'g'il to'g'ilishi tafsilotining bayonidan boshlanadi. Bo'tako'z vazirning ham farzandini emizib, parvarish kiladi. Podshohning o'g'liga Shakarbek, vazirning o'g'liga Shirinbek deb nom quyib, ular aka-uka bo'lib o'saveradilar. Ular etti yoshga etgach, xat-savod o'rganib, birinchi ovga chiqqanlarida o'gay onalari Kenjaoyimning tuhmatiga yulikadilar. Kenjaoyim Shirin bilan Shakar meni dupposladi (zurladi) deb, Krsimxonga shikoyat kilgach, o'g'illar otalarining amri bilan Mansur doriga osib o'ldirishga hukm qilinadi.

Asardagi keyingi vokealar pir Alovxo'ja ishtirokida davom etadi. Alovxo'janing insonparvarligi tufayli ular dordan omon koladilar va ota yurtlaridan bosh olib ketadilar, sarson-sargardon bo'ladilar. Chibich cho'li, Zil tog'i vokealari silsilasida Gulgun parini Shakarbek dahshatli ajdar domidan qutqarib, unga uylanadi. Akasini yo'kotgan Shirin ham sarguzashtlarga boy yo'lni bosib o'tadi. Gulgun pariga uylanmokchi bulgan Koraxonshoh yurtiga son-sanoqsiz qalandarlar bilan bostirib borib, uni engadi va xokimiyatni o'zi boshqaradi.

Dostonda bayon etilgan oilaviy munosabatlar zamirida toshbag'ir ota-Qosimxonning kaltabinligi vositasida oddiy tuhmat bilan haqiqatni farqlay olmaganligi ko'rsatiladi. Oqibatda u uz farzandlari boshiga og'ir malomat soladi.

Bo'tako'z, Alovxo'ja, Shirin va Shakar, Xoliyor bobo singari qahramonlar timsolida yuksak insonparvarlik namunalari zo'r ishtiyoq bilan kuylanadi. "Shirin bilan Shakar" dostoni pok sevgi, muhabbat, insoniy sadoqat, qahramonlik sarguzashtlarini o'z ichiga olgan asar hisoblanadi. Shuning uchun u Etnopedagogika-etnopsixologiyaning yoshlar tarbiyasi uchun hamon o'z kuchini yo'qotmagan qadriyatlarga boy manba hisoblanadi. Chunonchi, farzandlarini o'limga hukm qilgan otaga karshi ona Bo'tako'zoyimning iltijolari quyidagicha bayon etiladi.

Tilab olgan o'g'lim podsho o'ldirar,
Ko'rib hayron qoldi qancha odamlar...
Hech zamonda shundayin gap bo'larmi,
Podsho farzandini dorga ilarimi.

(O'zbek xalq ijodi: Shirin va Shakar. Kuntug'mish, Orzigul. Toshkent G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995. 20-bet).

Rustamxon dostoni Oqtosh ulusining bahodiri hisoblanmish Rustamxonga baxshida etilgan. Rustamxonning kundoshlar tuhmatiga yo'liqqan onasi Hur oyimni jallodlardan qutqarish borasidagi qahramonliklari, g'aroyib hayotiy sarguzashtlari kuchli tarbiyaviy ruhga yo'g'rilgan.

Bugungi kunda pedagogikada nafaqat maktabga va boshlang'ich sinflar o'quvchilari, maktab yoshidagi yoshlar, balki talabalar, aholining bundan yuqori qatlamlarini tarbiyalashga qaratilgan maxsus tizim borligini inobatga olsak, tarbiyaning inson kamolotining turli yosh xususiyatlarini o'rganuvchi va tarbiyaviy ta'sir texnologiyasini tavsiya qiluvchi bo'limlari ham rivojlantirilishi lozim. Milliy birlikni ta'minovchi harakatdagi kuchga aylanishi uchun u Etnopedagogika-etnopsixologiyaga tayanishi kerak. Milliy birlik, birlikning oliy mezoni milliy manfaatlarni har qanday shaxsiy, diniy, mahalliy manfaatlardan ustun qo'yish

O'zbek xalq ijodi: Shirin va Shakar. Kuntug'mish, Orzigul. Toshkent G.Gulom nomidagi Adabiyot va san'at nashriyoti. 1995. 20-bet

milliy mafkuraviy tarbiya samaradorligini ham ta'minlaydi. (Qurbonov M. Milliy mafkuraviy ishlar pedagogikasi. Karang: "Xalq ta'limi" №3, №4. 1994. 10-11bet).

"Alpomish" dostoni milliy mafkuraviy tarbiyani amalga oshirishda ham shunday kuchli vosita bo'la oladi. Uning qahramonlari boshdan oxir el-yurt, vatanparvarlik ruhini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish hissi bilan yo'g'rilgan. Garchi, "Daraxtning etukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha kamolotlari ham axloq bilan yakunlanadi" (Abu Nasr Farobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent, "Meros", 1997. 29-6) degan hikmatga amal qilish joiz ekan, Etnopedagogika-etnopsixologiyaga dahldor manbalar axloqiy tarbiya vositasi ekanligini nazarda tutmoq darkor.

Dostonlardagi personajlar hayotning turli og'ir va murakkab sharoitlari va lahzalarida hamkorlik qiladilar, bir-birlariga yordam qo'lini chuzib, zulmat ustidan g'alaba qiladilar. Bunday insonparlik sifati bizning xalqimizga jon bilan kirganligi dostonlarda ulug'lanadi. Chunki, "Baxtga erishish maqsadida o'zaro yordam bergan xalq-fazilatli xalqdir. Shu tartibda barcha xalqlar baxtga erishish uchun bir-birlariga yordam bersalar, butun er yuzi fazilatli bo'ladi" (Xayrullaev M.M. Farobiy. Toshkent, "O'zbekiston". 1995. 71-bet)".

Dostonlarda yaxshilik, adolat, tinchlik, ma'murchilik yo'lidagi kurashlarga qarshi yovuzlik, yovuz kuchlar turli makr-hiylalar ishlatadilar. Yolg'on, fosik, ijobiy qahramonlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itish maqsadida jirkanch axloqiy sifatlariga bog'liq ma'lumotlarni ishlatadilar. Ammo, "Yolg'on doim rostdan engiladi. U xuddi suv (ustidagi) yuzasidagi to'plangan ko'pikday yo'q bo'lib ketadi" (Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: muallif O. Xasanboeva. Toshkent, "Ukituvchi", 1993. 54-bet). Bunday sifatlarni "Rustamxon", "Murodxon", "Yakka

Xayrullaev M.M. Farobiy. Toshkent, "O'zbekiston". 1995. 71-bet

Pedagogika tarixidan xrestomatiya. Tuzuvchi: muallif O. Xasanboeva. Toshkent, "Ukituvchi", 1993. 54-bet

Axmad" dostonlarida ham ko'rish mumkin. Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati shundaki, uning zamirida onaga va ona timsolida axli ayollarga nisbatan hurmat, samimiyat hissi targ'ib etiladi. Onalik va bolalik baxtini muxofaza qilishga undaladi. Zero, bunday sifatlar Respublikamizda istiqlol davridagina davlat tomonidan 1999 yili - Ayollar yili, 2000 yil - Soglom-avlod yili deb e'lon kilinganligi fikrimizning dalilidir. Zero, bu fikr yuritilayotgan dostonlarda bunday tadbirlarni amalga oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarilmagan, balki, faqat asar qahramonlari yoki keng xalq ommasining orzusi bo'lib kolgan, xolos.

"Murodxon" dostonida olg'a surilgan bosh g'oya ezgulik, oliyjanoblik, do'stlik, vatanparvarlikka yo'g'rilgan sado sevgi-muhabbat, Murodjon va Orzigul kabi ijobiy qahramonlar timsolida bayon etiladi. Dostonda sof ijobiy sevgi-muhabbatgina fozil inson ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilab berishi mumkinligini ehtiros bilan kuylanadi. Bunday insoniy sifatlar yovuz, adolatni sevmaydigan, yomonlikni targ'ib etuvchi kuchlar ustidan g'alaba qiladi.

"Yakka Axmad" dostonida qadimiy xalq marosim an'anasi - to'y va marakalar bilan bog'liq udumlar, qadim ajdodlarimizning bir-biriga bog'liqligi, urf-odatlarini, ta'rif-tasnifini ko'rish mumkin. Bunday tarbiyaviy tadbirlar "Karg'ish olma, duo ol" qabilidagi maqol mohiyati dostonda Baxil pari timsolida ochib beriladi. Bunday badiiy pedagogik tavsiflar mazmunida birovga yaxshilikni ravo ko'rmaydigan, kishilarni tahqirleydigan, ozor beradigan dilozorlar, arvohlar ruhini chirqiratayotgan yomon niyatli odamlar albatta xalq la'natiga, qarg'ishiga yo'liqadilar, degan purhikmat ma'no yotadi.

Xalq pedagogikasi qoidalariga amal qilgan zahmatkash xalq oilasidagi tarbiya ardoklanadi. Xalq bolalari o'zlarining ijobiy hatti-harakati bilan tinglovchilarning hurmat va muhabbatiga sazovor bo'ladilar.

Xalq ijodida bolalardagi sofdillik, boshka ma'naviy sifatning tarkib topishi bilan paydo bo'lgan bu fazilatlar asosan o'smirlar, kichik maktab yoshidagi o'quvchilar hatti-harakatida ko'rinadi. Masalan: "Malika ayyor" dostonida quyidagi vokea xikoya kilinadi. Guro'g'libekning o'g'li Avazxon endi o'n olti yoshga kirgan, halol va sofdil yigit. Uning kichikligidanoq mehribon, sofdil bo'lib o'sishiga katta

e'tibor beradilar. Uning qat'iy iltimosiga ko'ra otasi o'z oti (G'irotni) ni unga beradi, u uzoq safarga jo'naydi. Agar Avaz o'z oldiga qo'ygan maqsadni uddalab kelsa, el-yurt o'rtasida e'tibori, obro'yi ortadi. Avazning muvaffaqiyatini ko'rolmagan baxil Axmad sardor xiyonat yo'lga o'tadi. Avaz jo'nagandan keyin Axmad sardor yigitlarni yig'ib maslahat qilib aytadi: - G'irotni Avazga berdi... har erga borsa topadi murodni... Kelganida Avazni martabasi yana oshib ketar, keyin nomi beklikka uyat bo'lar... hov yigitlar, na'rasher bormisan?

Avazni otsanglar, o'lja kilib G'irotni minsanglar... parini olib kelsanglar. Guro'g'li Malika bilan ovora bo'lib qolar, shunda yurtni o'z qo'limizga olsak, - deb Avazga xiyonat qilish yo'lini ko'rsatadi.

Shunda "Asad, Shodmon: - bu xizmat bizdan bo'lsin, - deb ikkovi Gajdim, Majdim degan otlarni minib hashroki miltiqni osib, narli yoyni egarning qoshiga solib, Avazxon yo'li bilan ketadi". ...Tush vaqtida Avaz ham Polopon tog'ining yaqinini elib etdi. Shunda Asad yoy bilan, Shodmon miltiq bilan Avazni otishadi. Biroq har ikkalasining uki Avazga tegmaydi. Avaz bularni bilib, ustiga darg'hab bo'lib ot choptirib kelganda, ular bahona qilishadi.

Ya'ni,

Chambil elda shohning g'amini eb edik,

Qo'rqqoqmikan, botirmikan deb edik.

Paxtaband bo'shatib hazil qib edik,

Hazilimni ko'nglingga olma, Avazxon.

Sofdil Avaz ularning so'ziga ishonadi. Uchovlon birga jo'nashadi. Ular Avazni o'ldirishga payt poylashadi. Biroq tadbirkor Avaz ularga imkon bermaydi. Ular o'z xiyonatlari ustida to'rt marta qo'lga tushadilar, biroq sofdil Avaz ularni xiynatkorligiga, xoinlik, hatto qotillik xurujlariga ham parvosiz insoniy axloq qoidalarini buzishga jur'at qila olmasalar kerak, deb o'ylaydi va har gal ularning gunohini kechiradi.

Dostonlardagi barcha yaxshi fazilatlar o'quvchilar, kitobxonlar uchun kerakli bir namuna bo'lib xizmat qiladi. O'zbek xalq og'zaki ijodida insonparvarlikni tarbiyalash yuzasidan qo'llaniladigan namuna ko'rsatish metodining xarakterli

tomoni uning asosan ikki yo'nalishda ko'zga tashlanishidir. Bu tomondan ijobiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy fe'l-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojuya hatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas o'rinishlardan qochishga targ'ib kilinadi.

Dostonlarning tarbiyaviy ahamiyati yana shunda ko'zga tashlanadiki, ularda pedagogikadagi tarbiya manbalari hamda vositalarning o'zaro ta'siri va aloqasi yaqqol namoyon bo'ladi.

Hotamov N.H. O'zbek xalq ijodiyotida milliy qadriyatlarning ifodalanishi. Toshkent, "O'qituvchi", 1997. 14-bet

II. BOB. BOSHLANG`ICH SINIF O`QUVCHILARIGA INSONPARVARLIK TARBIYASI BERISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

(“ALPOMISH” DOSTONI MISOLIDA)

2.1. “ Alpomish ” dostonida insonparvarlik g`oyalarning psixologik omillari

"Alpomish" dostoni kelajakka ishonch bilan yo'g'rilgan umuminsoniy qadriyatlarni o'zida mujassam etuvchi yirik, asrlar osha qadrlil bo'lib qolayotgan dostonidir. Asarda zo'r ixlos bilan kuylanuvchi milliy qadriyatlar orasida insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik ruhlari etakchi o'rin tutadi. Bu ruh razolat, kabohat, firibgarlik epizodlari bilan galma-gal almashib ko'zga tashlanadi. Ammo har safar mazkur insoniy xislatlar sayqal topaveradi, qudratliroq bo'ladi, oxir-oqibatda yozuvlik, razillik ustidan g'olib chiqadi.

O'tkir syujetli mazkur voqealar sil-silasida o'quvchida ezgulik, muhabbat, yovuzlikka nafrat hissi tarbiyalanadi.

Shu jarayonda o'quvchi asardagi ijobiy qahramonlarga xos oliy insonparvarlik namunalari, mehr-oqibat tasvirlari oldida lol qolib, bunday milliy qadriyat sohibi bo'lgan o'z eli, xalqi, yurti bilan g'ururlanadi. Doston vositasida o'quvchi xalqining pedagogik g'oyalari, dunyoqarashi, ma'naviy-axloqiy ideallaridan bahramand bo'ladi. "Alpomish" dostoni tarbiyaviy ta'siri g'oyat kuchli etnopedagogik manba bo'lib, o'quvchilarga, ayniksa yosh bolalarga tushunarli, engil hazm bo'ladigan, ammo tarbiyaviy ta'siri qudratli asardir.

"Alpomish" dostoni ko'p variantli asar. U qadim ul azalda xalq orasida keng tarqalgan, shoir va baxshilar tomonidan sevib kuylangan, oddiy xalq uni orziqib tinglagan. Uni kuylagan shoir va baxshilarni el e'zozlagan. Hozirgacha o'ttizdan ortiq varianti mavjud bo'lib, "Alpomish" dostonining to'la variantlari yozib olingan baxshilar orasida Fozil Yo'ldosh o'g'li, Muhammadkul Jonmurod o'g'li, Po'lkan, Berdi baxshi, Bo'ri Sodiq o'g'li, Bekmurod Jo'raboy o'g'li, Mardonaqul Avliyoqul o'g'li, Abdulla Nurali o'g'li, Saidmurod Panoh o'g'li, Umir Safar o'g'li kabi etakchi

dostonchilar bor. Bu variantlar orasida eng mukammali, badiiy jihatdan eng yuksagi atoqli xalq shoiri Fozil Yo'ldosh o'g'li "Alpomish" dostonini butun umr buyi kuylab kelgan. Atoqli shoir Hamid Olimjon obrazli iborasi bilan aytganda, bu doston uning shoirlik beshigi bo'lgan. Ushbu asarda xalqimiz o'tmishi urug'chilikning emirilishi va davlatchilikning shakllanishi davridagi ijtimoiy-siyosiy hayot, xalq udumlari, axloq-odobi insonparvarlik to'yg'ulari bayon etilgan.

Ma'lumki, o'zbek xalqi azaldan bolajon xalq. Farzand o'zbek oilasining gultoji, oliy baxt, uning tarbiyasi oila baxtidir. Xalq dunyoqarashi va ongidagi shunday oliy tushunchaning o'zi insonparvarlik namunasi.

O'zbek - farzandidan uzoqda yashamaydi. Umr buyi uning g'am tashvishlari, shodlik va quvonchlariga hamroh bo'ladi. Qarindosh - urug'lar manzillari yaqin atrofda joylashadi. To'y – azada, hayot sinovlarida hamkorlik xalqning tug'ma xislati. Shunga ko'ra "Alpomish" dostonida Alpbiyning iztiroblari bilan voqea-hodisalar tizimi boshlanadi.

Allohning tengsiz qudrati bilan farzand ko'rgan aka-ukalar bolalarga nisbatan cheksiz g'amxo'rlik ruhida yonadilar. Hisobsiz boyliklar sarflab el oldidan o'tadilar.

Boybo'ri va Boysari farzand ko'rmasdan oldin Qo'ng'irotda elida o'tkazilgan bir chuparon to'yda odamlar ularni xushlamay qarshi oladilar. Chunki odamlar ularga: "Bu to'y o'g'illining o'g'lidan, qizlining qizidan qaytadi, sening nimangdan qaytadi." - deb, izza qiladilar. Mazkur fikrni o'zi ham xalqimiz ongi kelajak avlod uchun g'amxo'rlik hissi bilan yo'g'rilganligini ko'rsatadi.

Doston syujetiga kiruvchi har bir voqea-hodisalar muntazam ketma ketlikda insonparvarlik to'yg'usiga chuqurroq singib boraveradi, farzand ko'rish Boybo'ri va Boysarilar uchungina emas, balki butun Qo'ng'irotda eli uchun shodiyonaga aylanishi butun xalqning bolajonligidan dalolat beradi:

"Alpomish" doston. Toshkent. T.Tulom 1979. 7-8 bet

"Hamma mamlakatga avoza bo'lib, dushmanlari g'amg'in bo'lib, do'stlari shodmon bo'lib, el-yurtning katta-kichiklari qulluq bo'lsinga kela berdi. Qo'ng'iroq urug'ining odamlari, eshitgan xaloyiqlar gurros-gurros bo'lib kela berdi, katta-kichiklar kelib, to'yning asboblarini tuzatib, qancha so'qim mollar suyib, osh, palovlarni damlab, fuqaro, beva-bechoralar to'yib, shu asnoda qirq kechayu, qirq-kundo'z to'y berib yotdi". ("Alpomish" doston. Toshkent. T.Tulom 1979. 7-8 bet).

Islom ta'limotining muhim manbai hisoblangan hadis sharifida: "Odamlarga taom ediringlar va shirin so'z bo'linglar, yoki ochlarga ovqat bering, bemorlarni borib ko'ring va hojatmandlarning hojatini chiqaring", deyilgan ("Yosh kuch". 1991. 8-bet). Ko'rinib turibdiki, islom ta'limotida ham insonparvarlik etakchi o'rinda turadi. U odamlarni beva-bechora, g'arib va miskinlarga g'amxo'r bo'lishga, ularga taom ulashishga, holidan xabar olishga undaydi. Shuning uchun ham xalqda shodlik, omonlik kunlari odamlarga to'y bahonasida taom ulashish udum bo'lgan. Bunday odatga "Alpomish" dostonida tasvirlangan Qo'ng'iroq usulida ham amal qilinganligi ko'zga tashlanadi.

Dostondagi voqealar rivojida Boybo'ri o'g'li Hakimbek bilan suhbatda baxillik va saxiylik sifatlarini muhokama qiladilar. Alpomish otasiga saxiylik haqidagi o'z mulohazalarini aytayotib, insonparvarlikka oid tushunchalarini quyidagicha bayon qiladi: "Vaqt bevaqt birovnikiga mehmon kelsa, otini ushlab, joyi bir bo'lsa ko'nglini xushlab jo'natsa, bul ham saxiy; agar joyi bo'la turib, joyi yo'q deb ko'ndirmay jo'natsa, bul x^{am} baxil..." deydi. ("Alpomish" Doston, Toshkent, T.Tulom, 1979. 9-bet).

Asarda tavsif etilgan voqea-xodisalar asosan insoniy munosabatlar, inson qadr-qimmatini ulug'lashga borib takaladi. Boybo'ri va Boysari orasidagi dastlabki konflikt, Boybo'ri otasi va xizmatkorlarining sarguzashtlari akasini noto'g'ri tushinishi, g'uyoki akam mening qadr-qimmatim va sha'nimni erga urdi degan tasavvurda bo'lsa ham, akasiga bosh ko'tarmaydi. Aksincha, o'z yurtidan bosh olib,

"Alpomish" Doston, Toshkent, T.Tulom, 1979. 9-bet

Qalmoq eliga ketadi. Ko'rinib turibdiki, o'tmishdagi o'zbek oilasida otanaga tik bokish, aka-ukaga qarshi bosh ko'tarish, keksalarga hurmatsizlik qilish odobsizlik, axloqsizlik hisoblangan. Bunday odat, tarbiya mezonini hozir ham saqlanib kolgan. "Alpomish" singari etnopedagogik manbalar mazkur pedagogik o'g'itlarni, tarbiya mezonlarini asrlar osha bizgacha etkazib kelgan.

Bosh personajlardan biri - Boysari akasidan arazlab, Qalmoq yurtiga kelib, behisob mollari, ekinlari nobud qilinganligi uchun besh yuz Mirg'azab jallod uni afgor kilib, shoh Toychixon huzuriga bandi kilib olib kelayotganlarida Boysarining iltijolari jallodlar qalbiga ta'sir etadi. Shundan so'ng voqea tafsilotlarini yozma ravishda shohga etkazishadi. Shu o'rinda Shoh Toychixon (Qalmoq shoh) yuksak insonparvarlik namunalarni ko'rsatib, deydi: "Meni ximoya tutib kelgan odam bo'lsa, qatorda nori ham o'ziniki, nor ustida zori ham o'ziniki, barcha davlat - mol ham o'ziniki... Barchin qizi ham o'ziniki. Yayloviga Chilbirning chulini berdim, suvlog'iga Oynalining kulini berdim. YETTI yilgacha moli bezakot, betergov yura bersin. Har kim musofir boylarga tahdid qilsa, boshi o'limda, moli talonda, "O'z ixtiyorida yurabersin", - deydi.

Qalmoqshoh Toychixonning insonparvarligi shu bilan chegaralanmaydi. U o'z fukarolarini ham bir yillik to'lovdan ozod qiladi. Bunday chuqur gumanizm bilan sug'orilgan aqlli tadbirlar tufayli musofir o'zbeklar zulmdan, mahalliy qalmoq dehqonlari ocharchilikdan saqlanib koladi. Qalmoqshohga nisbatan ham o'zbeklarning ham mahalliy fukarolarning ishonchi hurmati oshadi.

Odamlar orasida mehr-oqibat, tinch-totuvlik, normal turmush tarzi vujudga keladi. Bunday voqea-hodisalar o'quvchida insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik to'yg'ularini yanada kuchaytiradi.

Dostonda insonparvarlik tarbiyasi madhini bir kam to'qson alplarning sardori Ko'kaldoshning ukasi Qorajonga otlar poygasi jarayonidagi munosabatida ham ko'rishimiz mumkin. Barchinoyning shartlarini bajarish jarayonida poygada

o'ziga ishonayotgan qalmoq alplari Ko'kaldosh boshchiligida Qorajon va uning otini bog'lab tashlaydi. Boychiborga shafqatsizlarcha azob berib, tuyog'iga gulmixlar qoqib tashlaydi. Boychibor poygada g'oyat azob chekadi, ammo g'olib chiqadi. Ushbu voqealar kichik yoshdagi va o'smir yoshdagi o'quvchilarda Ko'kaldosh va uning sheriklariga nisbatan nafrat, Qorajon bilan Boychiborga nisbatan esa insonparvarlik hissini uyg'otadi. O'quvchi bu voqealar girdobida Ko'kaldoshning hatto o'z akasiga ham yon bermasligiga, undagi chin insoniylik insonparvarlik sifatlariga tahsinlar o'qiydi. Poygada u va Boychibor chekkan ziyon-zahmatlar o'quvchida achinish mehr hissini uyg'otadi, o'quvchi ixtiyorsiz ravishda Qorajon va Boychibor chekkan azoblarga sherik bo'ladi, yutuqlaridan quvonadi.

O'zbek xalqida qadim zamonlardayok ezgu niyatli kishilar hayvonot va o'simliklar dunyosiga ham azob berishmagan. Bunga zid ishlar axloqsizlikning belgisi hisoblangan. Hatto bunday fukarolar zardushtiylik dinining muqaddas kitobi "Avesto" da ham ta'kidlangan (Yo'ldoshev J., Xasanov S. "Avesto" da ta'limiy-axloqiy karashlar. Toshkent, "O'qituvchi", 1991. 19-bet).

Ayniqsa otlar dostonlarda insonning vafodor do'sti, yolg'izlik, kulfatli kunlarida ajralmas hamrohi, aqlli, o'z egasi qalbini tushunadigan, ba'zan so'zlaydigan, sehrli qanoti yordamida uchib, qahramonni balo-ofatlardan, qiyin vaziyatlardan ham qutkarib qoluvchi jonivor sifatida tasvirlanadi. Bunday sifatlar "Alpomish" dostonining bosh ijobiy qahramoni Hakimbekning oti Boychiborga ham xosdir. Boychiborning tuyoklariga gulmixlar qoqilganiga qaramasdan, o'zini ming bor azobga qo'yib bo'lsa ham, poygada engib chiqish yo'lidagi jonbozligi uning o'z egasi -Hakimbekka sadoqati, jonbozligidan dalolat beradi. U hatto hayvon bo'lsa ham inson uchun qayg'uradi, insonparvarlikni madh etadi.

Xalq dostonlarida milliy an'analar, urf-odatlar va umuminsoniy qadriyatlar har gal ijobiy obrazlar bilan bog'lab tasvirlanadi. Ularda adolat, vafo, halollik,

Yo'ldoshev J., Xasanov S. "Avesto" da ta'limiy-axloqiy karashlar. Toshkent, "O'qituvchi", 1991. 19-bet

insonparvarlik ulug'lanadi. Turli elatlar, xalqlar bilan insonparvarlik, birodarlik, samimiyat va do'stlik ulug'lanadi

"Alpomish" dostonida bunday insonparvarona sifatlar, Hakimbek, Barchinoy, Qorajon, Qaldirg'och, Qultoy hamda Yodgorbeklar misolida tasvirlanadi. Alpomishning afsonaviy kuch-qudrati, qahramonligi dostonning ikkinchi qismida tasvirlanadi. Yetti yillik zindon uqubatlari, Qorajon va boshkalarining unga g'amxo'rliги zamirida yuksak insonparvarlik hissi namoyon bo'ladi.

Dostonning har ikki qismida ham Qalmoqshoh boshchiligidagi qora kuchlarning jabr-zulmiga Alpomish, Qorajon, Barchinoyning insonparvarlik hatti-harakatlariga qarshi qo'yiladi. Uzoq vaqt davom etgan kurashda yaxshilik, insonparvarlik, yovuzlik ustidan g'alaba qozonadi. Yoshlar timsolida yaxshilar, oddiy avom xalq murod-maqсадiga etadi. Ya'ni, insoniylik, ezgu niyat, insonparvarlik tantana qiladi.

Alpomish Qalmoq yurtiga zo'ravon yoki boskinchi sifatida emas, balki zulm ostida qolgan, mol-mulki tortib olingan, insoniylik kadri, sha'ni toptalgan qon-qarindoshi, jigargushalari, oddiy yurtdoshlarini ozod qilish uchun boradi. Oddiy xizmatkorga aylangan Qo'ng'iroqlik amakisi Boysariga madad berish, sevgilisi Barchinni yovuz kuchlar changalidan qutqarish uning asosiy maksadi edi. Toychixon lashkari unga xujum qilgani sababli dushmaniga qarshi jangga o'tlanishga insoniylik sha'ni himoyasi va adolat uchun kurashishga majbur bo'ladi.

Alpomish yovuzlikka qarshi kurashda oddiy erli xalq vakillari Tovka, Cho'pon, Qayqubod, Alp Qorajonlarning insonparvarona yordamiga tayanadi. Tovka, Qayqubod Alpomishning zindondan qutulishiga yaqindan ko'mak beradilar. Bu voqealar zamirida kishi - kishiga do'st, g'amxo'r bo'lishi, insonparvarlik yordamini ko'rsatishi, do'stona sadoqat kabi sifatlar talqin etiladi.

Alpomish bilan Qorajon orasidagi do'stona aloqalar halol va chinakam insonparvarlik zamirida sinovlardan o'tadi. Ular og'ir sinovlarda, kurashlarda bir-biriga sodiq bo'lib qoladilar. Ana shunday sinovlarda ulardagi insonparvarlik,

insoniylik xislatlari namoyon bo'ladi. Bu do'stlik, ozodlik, haqiqat, tenglik, nomus uchun kurashda tobora mustahkamlanib boradi.

Alpomishning kurash yo'lida xotin - qiz obrazlar - Barchinoy, Qaldirg'och, Qalmoq elida Tovka singari ayollar hamkor, madadkor bo'ldilar. Ular Alpomishning qiyinchilik kunlarida u bilan g'amga sherik, yutuqlar va g'alabalarga esa quvonadilar. Shuning o'zi mazkur obrazlar insonparvarlik, odamiylikka yo'g'rilganidan dalolat beradi. Asarda insonparvarlik g'oyasi ana shunday ishonarli, ta'sirchan chizgilarda bayon etiladi va insonparvarlik madh etiladi.

Barchinoy obrazi afsonaviy qahramon sifatida ideallashtirilsada, feodal jamiyat vakili bo'lishga qaramasdan "Qiz ota - onaning, erining quli" degan o'z davri qonunlariga bo'ysunmadi. Muallif Barchinni jamiyatning teng a'zosi, o'z qadr-qimmatini bilgan, insonparvar obraz darajasiga ktargan. Barchinoy, Qaldirg'och timsolida yuksak insonparvarlik, bolajonlik, sabr-toqat o'quvchini befarq qoldirmay, inson qadrini ulug'lashga undaydi.

"Alpomish - ozod, erkin, mag'rur va go'zal odamlar haqida to'qilgan, shularni maqtab ko'klarga ko'targan, shu bilan odamlarning yuragiga yaqinlashgan" dostonidir (H.Olimjon). U o'zbek xalqining ko'p asrlik badiiy yodgorligi sifatida jahon madaniyati tarixida muhim o'rin tutadi.

Dostondagi Alpomishning kuch-qudrati, bahodirlik salohiyatini tasvirlashga alohida etibor berilgan. U etti yoshida bobosi Alpinbiydan qolgan o'n to'rt botmonlik yoydan otib, Askar tog'ining cho'qqisini uchirib yuborganligi uchun ham alp ataladi. Dostonda Alpomish va Qorajon ana shunday kuchi va aqllari bilan dostondagi salbiy obrazlarga qarshi kurashadilar.

Alpomish kimga qarshi va nima uchun, nima maqsadda kurashayotganligini juda aniq bilgan, gunohsizdan gunohkorni farq qila oladigan qahramondir. Uning oliyjanoblighi ham shundadir. Bu narsa o'z yurtiga tinch ko'chib ketayotgan qo'ng'irotliklarning ustiga Qalmoq shoxi Toychixon lashkar tortib kelganda, uning Qorajonga aytgan so'zlari tasvirida yaqqol ko'zga tashlanadi:

Xayolingga boshqa gaplar kelmasin,

Bu so'zim sha'ningga nomard bo'lmasin.

Qasd qilma, bek do'stim, qalmoq o'lmasin ...

Bular emas bizga kelib gunohkor,

Qalmokshoh amrini tutgan ko'p askar.

Shunday oliyjanob, sadoqatli, zukko, mard va bahodir yigit, o'ta zabardast, to'qson alpning qarshiligini sindira olgan paxlavon, kuch-qudratda o'zidan juda past, ma'naviy tuban Surxayl mastonning nayrangi bilan etti yillik tutqinlikda qolib ketadi. Bunda Alpomish harakterining yana bir qirrasini namoyon bo'ladi. U g'ururli, boladek sodda, o'ta ishonuvchan va sof ko'ngilli insonparvar yigit edi. Mana shu "Alpomish" dagi soddalik, ko'ngilchanlik, mag'rurlik yomon illatlardan ma'lum vaqtdan so'ng engib chiqishini adolat qozonishini o'quvchi anglab oladi. Faqat ezgu ishlargina, insonparvarlik xislatlarigina insonni kamolotga etkazishini o'z qalb va shuurlariga singdirib oladilar va asardagi qahramonlardan ijobiy qahramonlarni o'zlariga do'st tutib, ulardagi barcha ezgu-xislatlarni hayotlari davomida qo'llab borishga ham o'rinadilar. Bu esa biz kutgan natijalarni beradi.

Bevosita bolalar ishtirok etadigan ertak va dostonlarda ota-ona va kattalarning vazifasi o'z farzandlarini odamlarga yaxshilik qilishga, ularni yaxshilikka yaxshilik bilan javob qaytarishga va bu muqaddas insoniy burch ekanligini targ'ib qilishlari asosiy o'rinni egallaydi. Doston va ertaklardagi yaxshilargina (yaxshi bolalar) murod-maqсадlariga etadilar, el-yurtning sevimli farzandi, madadkori bo'lib etishadilar.

Xalq ijodida yomonlar (yomon odamlar) va yomonlik asosan ekspluatator sinf vakillarida uchraydi, bunday yomonliklar shaxsiy boylik orttirish, xususiy mulk to'plash yuzasidan bo'ladigan kishilarning eng tuban ma'naviy qiyofasi tasvirlanadi. Shunday kilib, bevosita bolalar ishtirok qilgan o'zbek xalq og'zaki ijodi materiallarining ko'rsatishicha, bolalarning to'kis kamolotga erishishlari, shu jumladan insoniy fazilatlarining tarkib topishida xalq pedagogikasining tutgan o'rni g'oyat kattadir.

O'zbek xalq pedagogikasida, xususan ertak va dostonlarda yoshlarning umumiy rivoji, xususan insonparvarlik ruhida tarbiyalashda oilaviy tarbiya etakchi

o'ringa qo'yiladi. Ayniqsa, ota-ona va oiladagi kattalarni hamda umuman kishilarni qadrlash, o'z insoniy burchini anglash, rostguylik, kamtarlik saxiylik, sofdillik, yaxshilik kabi fazilatlarining shakllanishida oila tarbiyasining muhim o'rin egallashi ta'kidlanadi. Shu bilan birga xalq pedagogikasi yoshlarda yuqoridagi kabi fazilatlarining tarkib topa borishida, ularda yuksak ma'naviy sifatlarning shakllanishi ko'rsatiladi.

Yuqorida aytib o'tilganidek, yoshlarda dastlabki insoniy fazilatlarini tarkib topa borishi, ularning chuqur insonparvar bo'lib etishishlarining ham asosiy omilidir. Boshqacha qilib aytganda, bolalarning ota-ona, oiladagi kattalar ham atrof-muhit ta'sirida shakllangan dastlabki ma'naviy fazilatlariga, ya'ni bolalar tomonidan ota-ona va oiladagi keksalarning, umuman katta yoshdagilarni hurmat qilishlari, qadrlashlari, kattalar oldidagi burchni anglash ham ado etishlari, yaxshilik, rostguylik, kamtarlik, saxiylik, sofdillik ham halol bo'lishlari yoshlarda chukur insonparvarlik to'yg'ularini kamol topishining dastlabki omili bulib xizmat qilishi va asosan shu fazilatlarining oqibatida insonparvar bulib etishishliklari

ko'rsatiladi. Ko'pchilik dostonlarda ota-ona va keksalarning turmush tajribalarini ifodalash bilan birga yoshlarni unga bevosita amal qilishlariga undaydigan maslahat va pand-nasixatlar formasi ham asosiy o'rinlardan birini egallaydi.

Bundan tashqari insonparvarlik to'yg'ularini shakllantirishda namuna ko'rsatish metodi ustida gap yuritsak, avvalo shuni aytib o'tish keraki insoniylik temasida aytilgan ertak, dostonlarning o'zi katta tarbiya vositasi, metodi sifatida xizmat qiladi. Dostonlarda uchraydigan namuna ko'rsatish metodining harakterli tomoni - uning asosan ikki yo'nalishda ko'zga tashlanishidir. Bir tomondan, ijobiy fel-atvorga ega bo'lgan kishilarning hatti-harakatlarini ko'rsatish orqali undan ibrat olishga undalsa, ikkinchi tomondan salbiy fel-atvorga ega bo'lgan kishilarning nojo'ya hatti-harakatlarini ko'rsatish bilan undan nafratlanishga, yaramas urinishlardan qochishga targ'ib qilinadi

2.2. "Alpomish" dostonidan o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalashda foydalanish

Maktab ta'lim - tarbiya jarayoni Etnopedagogika-etnopsixologiya manbalardan foydalanish imkoniga boy pedagogik jarayondir. Madomiki, biz yoshlarni insonparvarlik ruhida tarbiyalamokchi ekanmiz, ayniqsa, xrzirgi istiqlol davrida xalq madaniy merosiga, xususan, Etnopedagogika-etnopsixologiyaning zabardast yo'nalishi - dostonlarga murojaat etish muhim vazifadir.

"Alpomish" dostoni ta'lim jarayonida xuddi shunday vazifani o'tashi mumkin.

Maktab ta'lim tarbiya jarayoni kelajagi buyuk avlodni insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlariga juda boy. Ushbu bandeda mazkur doston asosida yoshlarga insonparvarlik tarbiyasi berishning yo'nalishlari tadqiq etiladi. O'z-o'zidan ma'lumki, maktabda ushbu muammo, bizningcha, quyidagi yo'nalishlarda hal etilishi mumkin.

1. Ta'lim jarayonida insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik tarbiyasi berish;
2. Sinf dan tashqari o'qish jarayonida insonparvarlik, do'stlik tarbiyasi berish;
3. Tarbiyaviy ishlar vositasida o'quvchilarga insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik tarbiyasi berish kabilar.

Endi talim-tarbiya jarayonining ushbu har bir yo'nalishlarida yoshlarga insonparvarlik tarbiyasi berish imkoniyatlarini ko'rib chiqaylik.

1. Talim jarayoni o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham o'zini qurshab turgan olamni bilish turi hisoblanadi. Talim bilish jarayonining birinchi bosqichi bo'lib, o'quv faoliyatining eng muhim qismidir. Talim bilish haqidagi falsafiy qonuniyatlarga asoslanadi. Talim jarayoni hakida fikr yuritganda tevarak-atrofn i olamni bilishga oid umumiy

(Baratov S. P. va b. Pedagogika. Toshkent, "O'qituvchi", 1990. 77-bet)

qonuniyatlarga tayanib ish yuritiladi. Bilish qator bosqichlar: hissiy, mavhum, yuksak, taraqqiy etgan mavhum fikrlashdan iborat bo'ladi

Talim jarayonida Etnopedagogika-etnopsixologiya bilan bog'liq, mavzular asosida darslar qiziqarli tashkil etilsa, o'quvchilarda bilishga bo'lgan ishtiyoq kuchayadi. Bilishga ishtiyoq o'quvchilarda dostonlar asosida tug'ilganida hissiy bilish bosqichi sodir bo'ladi. Dostonlar syujetiga kiruvchi voqea hodisalar rang-barang holatda bolaning tasavvur diapazonini kengaytiradi. Mushohada kobiliyati o'sadi. Bilimi tufayli tasavvur etilgan voqea-hodisalar mushohadasida mantiqiy xulosalar (hayotiy haqiqat) chiqariladi.

Talim jarayonida o'qituvchi o'quv dasturi, o'quv rejalari ko'rsatilgan adabiyotlar (darslik, o'quv kullanmalari va b.) bilan cheklanib qolsa, pedagogik jarayon samarasi pasayib ketadi. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda tez-tez qo'shimcha manbalarga murojat etmogi tavsiya etiladi. Shunday qo'shimcha manbalar safiga Etnopedagogika-etnopsixologiyaga oid dostonlarni, xususan, "Alpomish" dostonini kiritish mumkin.

II-sinf o'qish darslarida o'quv rejasiga ko'ra o'tish muljallangan. (II-chorak) "Aka-uka", "Hunarli kishi xor bo'lmas", "Do'stlikning xosiyati", "Rahmdil va e'tiborli bo'ling", "Yaxshilikka yomonlik", "Sinfdan tashqari o'qish" mavzularini (43-45-61-73 b. K., Abdullaeva, M. Yusupov va b. O'qish kitobi. Toshkent, O'qituvchi. 1999).

"Atrofimizdagi olam" darslarida utishga muljallangan "Bolalar o'zlaridan kattalarni hurmat qiladilar" mavzularini "Alpomish" dostonining ijobiy va salbiy obrazlariga qiyoslab, taqqoslab tushuntirish yaxshi natija beradi. Buning natijasida o'quvchilar xalqimiz milliy qadriyatlarini chuqur o'rganadilar, asardagi ijobiy kahramonlar xislatlaridan urnak oladilar, salbiy axloq sifatlariga nisbatan nafrat hissini tuyadilar. Chunonchi, "O'qish kitobi" da "Hunarli kishi xor bo'lmas", "Do'stlikning xosiyati", "Aka-uka" mavzulari o'tilayotganda "Alpomish"

43-45-61-73 b. K., Abdullaeva, M. Yusupov va b. O'qish kitobi. Toshkent, O'qituvchi. 1999

dostonidagi Boybo'ri va Boysari, Hakimbek va Qaldirg'och qalmoq elining aka-uka alplari misolida jigarbandlik va qarindosh-urug'chilik munosabatlari: Alpomish va Qorajon misolida do'stlik, uning kuchi ahamiyati, jamiyat taraqqiyotida, turli hayotiy muammolarni hal qilishda tutgan o'rni ochib beriladi. Bunday pedagogik tadbir tufayli o'quvchilarda hissiy bilish jarayoni tezlashadi. O'quv materiali o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib qoladi. Xalq ijodi materiallarida otalarning bolalarning ahilligi va o'rtoq do'st orttirishlaridagi vositachiligi turli formada bo'lganligini ko'rsatadi. Kichik maktab yoshidagi bolalar o'rtasidagi do'stlik o'ziga yarasha shart bilan nishonlanadi, ya'ni ota-ona vositachiligida do'stlar kichik barmoqlarini alg'ashtirib turib, do'stlikka ahd qiladilar. Shu asnoda qaror topgan do'stlik odatda "Alpomish" dostonidagi Alpomish va Qorajondek tutingan do'st, tutingan aka (uka, opa, singil) deb yuritiladi.

Ko'pchilik xalq, ijodida ko'prok kichik o'smir yoshdagi bolalarning do'stligi mehnatkash xalq ommasining umid-orzularini ruyobga chiqarish, mamlakatda adolat o'rnatish, zolim shohlar, amir va beklarning jabr-zulmiga qarshi kurashlar zamirida rivojlanadi, mustahkam, sodiq va vafoli do'stlikka aylanadi. Odatda bu yoshdagi bolalarning do'stligi bir-birini tanishib, sinashib, oldilariga qo'ygan maqsad va vazifalarni anglab etgach, shu maqsadni ruyobga chiqarish yo'lida ahillik, hamkorlik sadoqat va vafodorlik bir so'z bilan aytganda insonparvarliklarida kamol topganligi ko'rinadi.

Bu yoshdagi bolalar do'stligi ham ma'lum shart va ahd-paymon bilan belgilanadi. Masalan: "Alpomish" dostonida Alpomish Qalmiq yurtiga borib birinchi marta Qorajonni uchratadi. Ancha ilik gapdan so'ng quchoqlashib ko'rishganda, Alpomish Qorajonning etti kobirg'asini sindirib yuboradi. Qorajon Alpomishning kuch-qudratiga qoyil qolib, Alpomishning polvonligiga tan beradi:

Men ham edim tuqson alpman barobar,

Yaxshi ishman men ko'rishdim muqarrar.

Yuq edi ko'nglingda zarracha g'ubor,

Senga qoyil buldi mandayin nomdor.

Bizning yurtda senga yo'qdir barobar

deb, Qorajon do'st bo'lib, bo'lakdan ko'rishib, Alpomishni mehmon qilmoqchi bo'lib, chodirga ergashtirib boradi. Biroq Qorajonning onasi do'stlashishiga qattiq qarshilik qiladi. Alpomishning do'st bo'lishiga ishonmaydi...

*Osha yurtdan kelgan ekan zo'ravor,
Bunday mehmon bolam, senga ne darkor.
Achiqlansa, bolam seni o'ldirar,
Gul enangning nasihati shu bo'lar;
Harni desa aytganiga ko'ndirar.
Surxayilman, eshit mening so'zimni,
Qorajonbek, axmoq bildim o'zingni.*

Onasidan bu so'zni eshitib Qorajon ham bir so'z deb turgan ekan:

*To o'lguncha to'g'ri bo'ldim, rost bo'ldim,
O'z fe'limdan chupu xasdan past bo'ldim.
Nomusni o'rtağa solib do'st bo'ldim,
Kelgan mehmon sening o'g'ling bo'ladi,
Unday desang, ena, ko'nglim qoladi.
Do'stning mehri juda issiq keladi,
Manziliga o'g'ling aytib keladi.
Do'st otini bundan tutib turadi,
Unday dema ena ayib bo'ladi.
Qo'ng'irot shunqori kelib ko'padi,
Eshitsa kunliga og'ir oladi.*

Demak yosh yigit Alpomish bilan Qorajon har ikkalasi ham alp polvon, ular kengashib, bir-birining kuch qudratiga qoyil qolgach, ma'lum maqsad yo'lida do'stlashadi va quchoqlashib ko'rishib, axd-paymon qiladilar.

Ana shu ikki alpning samimiy insoniy do'stligi ular oldida turgan maqsadning ruyobga chiqishiga, murod maqsadga etishlariga olib keladi. Xalq, ijodi materiallari, undagi ijobiy obrazlar o'z insoniy fazilatlarini ya'ni insonparvarlik xislatlari bilan o'quvchi-tinglovchi yoshlarga qudratli tarbiyaviy ta'sir ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ota-onalarni bolalarning yoshlik xususiyatlariga mos

keladigan xalq ijodi materiallaridan foydalanishning namuna ko'rsatish metodidan foydalanganliklardan darak beradi.

O'quvchilar ongiga "Alpomish" dostoni ijobiy qahramonlarining turli hayotiy muammolarni xal qilishda tutgan o'rni ochib berilsa, bunday pedagogik tadbir tufayli o'quvchilarda hissiy bilim jarayoni tezlashadi. O'quv materiali o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib koladi. Oqibatda ta'lim samaradorligi oshadi. O'quvchilar ma'naviyatida insonparvarlik to'yg'ulari mustahkam ildiz otadi. Bola qalbini larzaga soluvchi situasialarning ta'sir kuchi badiiy talqin vositasiga, qudratli tarbiyaviy vositaga aylanadi. Biz pedagog amaliyot davrida shu hodisaning guvohi bo'ldikki, o'quvchilarda insonparvarlik hissi kuchaydi.

2. Sinf dan tashqari o'qish jarayonida "Alpomish" dostonidan foydalanib, o'quvchilarga insonparvarlik tarbiyasi berish imkoniyatlari ancha keng bo'lib, ushbu o'rinda biz ularga faqat umumiy tavsif berish bilan chegaralanamiz, xolos. Chunki, mazkur muammo tadqiqotimizning keyingi bandida mufassalrok kurib chiqiladi.

Ma'lumki, tadqiqotning asosiy maqsadi boshlang'ich sinf o'quvchilarini o'qish, va tarbiyaviy soat, sinf dan tashqari o'qish jarayonlaridan foydalanib o'zbek xalq pedagogikasi vositasida "Alpomish" dostoni asosida insonparvarlik sifatlarini shakllantirish, tarkib toptirishning ilg'or usullarini aniqlash, unga ta'sir qiluvchi omillarni ishlab chiqish, muammoga doir tajriba-sinov natajalarini amaliyotga tavsiya qilishdir. Ilmiy metodik tajribalar orqali chiqarilgan xulosalar, ilgari surilgan g'oyalar, metodik tavsiyalarni belgilashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Boshlang'ich sinf o'quvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash, "Alpomish" dostonining qay darajada bilishliklarni aniqlash maqsadida ilmiy izlanish usulidan foydalanildi. Bunda umumiy o'rta ta'lim maktablarining boshlang'ich sinflardan nazorat sinflari va tajriba sinflaridan odobnoma, tarbiyaviy soat, o'qish, sinf dan tashqari o'qish darslari kuzatildi. Shuningdek, boshlang'ich sinf o'qituvchilari va o'quvchilari bilan suhbatlar uyushtirildi, anketa surovlari asosida o'quvchilarning insoniy xislatlari, insonparvarlik to'yg'ulari qay darajadiligini aniqlashga harakat kilindi. Ilmiy tadqiqot Qarshi shahardagi

Muqumiy nomli 7-o'rta maktab va Kitob tumanidagi 3-son umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'tkazildi.

Ilmiy tadqiqot jarayonida suhbat, savol-javob, kuzatish, tajriba, anketa so'rovlari kabi ilmiy-tadqiqot metodlaridan foydalanildi. O'quv rejasi va sinf rahbarining pedagogik jarayonni yo'lga qo'yish borasidagi talablari va sinfdan tashqari o'qish jarayonlaridan, uyda o'quv ishi bilan bog'liq o'quvchining o'quv faoliyatlaridan foydalanildi. Maktabdan tashqari tarbiyaviy ishlarda o'qituvchilarni insonparvarlik ruhida tarbiyalash uchun jarayonida o'quvchilar shahar kinoteatlarida "Alpomish" badiiy filmini, viloyat muzdramateatrida shu nomdagi sahna asarlarini ko'rishga tayyorgarlik bosqichini o'taydilar. Tayyorgarlik bosqichida o'quvchilar dostonning syujeti bilan tinishishlari shart. Buning uchun o'qituvchi o'quvchilarni oldindan dostonning syujeti, unda tasvirlangan voqealar mazmuni, asosiy personajlar, dostonning vujudga kelishi va yozilishi tarixi bilan tanishtiradi. Dostonning ohanrabo tasma-siga yozilgan nusxasini o'quvchilarga eshittiradi. Shundan so'ng doston yuzasidan savol-javoblar o'tkaziladi. Shu kabi tadbirlar amalga oshirilgach, teatrga tashrif uyushtiriladi. Asar tomosha qilib bo'lingach, o'quvchilarga (IV sinf) bayon yozib kelish topshiriladi.

O'qituvchi o'quvchilar tomonidan yozilgan yozma ishlarni tekshirib baholaydi. Mazkur jarayonda o'qituvchi har bir o'quvchining sahna asari tomoshasidan olgan tassurot darajasini aniqlaydi. Tadbir nihoyasida yozma ish tahlili o'tkazilib, ishga yakun yasaladi.

Shuningdek, maktabdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda "Alpomish" dostoni bir ming ikki yoshga to'lganligi sanasiga bag'ishlab turli bahs va munozaralar, badiiy ko'riklar, ijodkorlik tadbirlari (ashula, raks, haykaltaroshlik, badiiy bezak, bichish-tikish, sport musobaqalari turar joylarda, mahallalararo tanlov yoki ko'riklar tashkil etilishi mumkin) o'tkaziladi. Ushbu tadbirlarga mahalla qo'mitalari, ota-onalar tashkilotlari tomonidan bolalar keng miqyosda jalb etilishini

-K. Abdullaeva, M. Yusupov va b. O'qish kitobi. Toshkent, O'qituvchi. 1999. 43-45-61-73 b.

nazarda tutish darkor. Bu jarayonlarga maktab pedagoglar jamoasi rahbarlik qiladi. Maktab tarbiyaviy ishlari buyicha direktor o'rinbosarining yillik ish rejasida bu tadbirlar ko'zda tutilgan bo'lishi kerak.

“Ta'lim to'g'risida”gi Qonun, Kadrlar tayyorlash Milliy dasturida (1997) ko'zda tutilganidek va Prezident I.A.Karimov ta'lim berganidek, bunday tadbirlar kelajagi buyuk mamlakatni ko'rishga qodir bo'lgan barkamol avlodni tarbiyalashga, insonparvar jamiyatni barpo etuvchi insonparvar fuqorolarni tarbiyalashg qaratilgan bo'lmog'i darkor.

III. BOB O`ZBEK XALQ OG`ZAKI IJODIYOTIDA BOLA DUNYOQARASHINI SHAKILLIANTIRSHDAGI PSIXOLOGIK XUSUSIYATLAR

3.1. O`zbek xalq pedagogikasidagi dostonlar – insonparvarlik, do`stlik tarbiyasining psixologik vositasi

Mustaqilligimiz e'lon qilingandan buyon o'tgan davr nisbatan qisqa bo'lsada, xalqimiz, davlatimiz tarixida g'oyat katta ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy o'zgarishlar ruy berdi. Milliy davlatchiligimizni qayta tiklashda ko'p asrlik ma'naviy merosimiz, tarixu madaniyatimiz, muqaddas urf-odatlarimizning yana qadr rostlashida sezilarli qadamlar quyildi. Milliy g'ururimiz, oriyatimiz tiklanmoqda, qalbimizda asl vatanparvarlik to'yg'ulari uyg'onmoqda (Karimov I.A. Halollik va faollik asosiy mezonimiz bo'lsin. Toshkent, "O'zbekiston", 1993. Z-b). Bunday to'yg'ular sohibi kelajaqda insonparvar jamiyatning insonparvar a'zolariga xos bo'lmog'i tayin.

Ko'rinib turibdiki, davlatning o'zi yanada insonparvar jamiyatni yaratishni maqsad, asosiy harakat dasturi qilib qo'yayotgan ekan, yoshlarni chuqur gumanizm ruhida tarbiyalash bugungi kunda xalq ta'limi oldida turgan asosiy vazifadir. Zero, "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasto'rini (Barkamol avlod -O'zbekiston tarakkkiyotining poydevori. Toshkent, "O'zbekiston", 1997.) bosqichma-bosqich amalga oshirish izchil amalga oshirilmoqda. Shu boisdan avvalo, "Insonparvarlik tarbiyasining mohiyati nima? Dostonlarda tarbiyaning bu yo'nalishi qanday o'rin tutadi?" singari savollarga javob berish darkor.

Insonparvarlik - jamiyatda inson qadr-qimmatini o'z o'rniga qo'yish, insonni jamiki mavjudotlarning sarvari deb bilish, uni hurmat qilish, tafakkur, nuqtzabon, oliy hissiy sezgilar sohibi, ongli yashash va mehnat qila oluvchi yagona jonzot ekanligini tasavvur etib e'zozlashdan iborat.

Borlikdagi barcha moddiy boyliklar inson uchun, uning baxt-saodati uchun xizmat qilishi darkor.

Barkamol avlod -O'zbekiston tarakkkiyotining poydevori. Toshkent, "O'zbekiston", 1997

Insonparvarlik - inson tomonidan boshqalarga mehr-oqibat, xayr-saxovat, adolat, insof-diyonat, g'amxo'rlik bilan munosabatda bo'lish demakdir. Tarbiyada inson shaxsini oliy ijtimoiy qadriyat deb tan olish, har bir bola, o'smir va yosh yigitning betakror va o'ziga xosligini hurmatlash lozim (Pedagogika. A.K., Munavvarovning umumiy tahriri ostida. Toshkent, "O'qituvchi". 1996. 121-bet).

Maktabda o'quvchilarga tarbiyaviy soat, sinfdan tashqari o'qish darslarida (ko'prok) ta'lim berishda tarbiyaga ko'prok e'tibor qaratish darkor. Ayniqsa, hozirgi sharoitda milliy ma'naviyatga, milliy ruh, urf-odat, umumbashariy qadriyatlarga alohida urg'u berish zarur. Bu borada maktablarda joriy etilgan ruhiy xizmatdan unumli foydalanish zarur.

Insonparvarlik tarbiyasi pedagogika fanidagi yangi mavzu emas. O'tmishda ajdodlarimiz tarbiyaning bu yo'nalishiga alohida e'tibor berganlar. Jumladan, bobokalon allomamiz Xusayn Voiz Koshifiy insonparvarlik (juvonmardlik) zikrida shunday deydi:

"Ey farzand, agar sen juvonmardlardek harakat qilmoq istasang, dastlab juvonmardlik nima ekanligini bilgin. Bilginki odam ... uch narsa bilan xushnuddir ... bu uch narsaning biri aql, biri rostlik va biri juvonmardlikdir....

Juvonmardlik asl uch narsadir: biri ulkim, aytg'on so'zingni o'zing qilsang, ikkinchisi ulkim, rostlikka g'ilof qilmasang; uchinchisi ulkim, xayr ishni ilgari tutsang. Odamdagi barcha sifatlar bu uch narsaning ostidadir." (Ma'naviyat darslari Tuzuvchi S. Nishonova. Toshkent, "O'qituvchi", 1994, 67-69 bet).

Insonparvarlik odamlardagi axloqiy munosabatlarni xarakterlovchi ma'naviy fazilat bo'lib, mehnatda atrofdagi kishilar foydasi yo'lidagi hatti-harakatlar va faoliyatda namoyon bo'ladi. (Baranov S.P. va b. Pedagogika. Toshkent, "O'qituvchi", 1990. 252-bet).

Insonparvarlik odamlarning axloqiy munosabatlarini va jamiyatning shaxsga munosabatini yo'lga solib turadi. Respublikamizdagi barcha iqtisodiy va ma'naviy

o'zgarishlar inson haqida, uning baxt-saodati to'g'risida g'amxo'rlik ruhi bilan sug'orilgan. Ammo insonga insoniyatga mehr-muhabbat e'lon qiluvchi demokratik insonparvarlik xalqni qonga botirishga tayyor turgan diniy ekstremizm va yovuz kuchlarga nisbatan murosasizdir.

Insonparvarlik ilk yoshdan boshlab tarbiyalanadi. Bolalarga oilada va maktabda ota-onalarga, qarindosh-urug'larga, ustoz-murabbiylarga, qishloqdosh, mahalladosh, hamshahar va hamyurtlarga nisbatan e'tiborli va g'amxo'rlik ruhi targ'ib etiladi. Bu tushunchaning intihosi yurtdoshlar, vatandoshlar, jamiki insoniyatga, tabiatga nisbatan insonparvarlik munosabatlari bilan yakunlanadi.

O'quvchilarga adolat, yaxshilik, ezgulik tantanasiga ishonch ruhi singdiriladi. Tahqirlanish, adolatsizlik, noahillikka murosasizlik ruhi tarbiyalanadi.

O'zbeklar azaldan bir-birlari mehribon, mehmondo'st bo'lganlar. O'zbekiston Sharq madaniyatining eng yaxshi an'analari yo'lidan borib, mehmondo'stlik va ahil do'stlik eshigini keng ochdi, badarg'a kilinganlar, vatandan judo bo'lganlar, urushlar va ta'qiblarning qurbonlari har doim O'zbekistonda boshpana topganlar, xalqimiz mehribonligidan bahramand bo'lganlar. "Sen etim emassan" Ulug' Vatan urushi yillarida o'zbek xalqi qalbidan ota-onasidan va kindik koni to'kilgan xonadonidan, yurtidan judo bo'lgan bolalarga qarata ana shu yurak so'zlar yangradi.

O'sha kezlarda xalq shoiri Fafur G'ulom quyidagi dard so'zlarini yozgan edi:

Sen etim emassan,

Tinchlan jigarim.

Quyoshday mehribon,

Vatanning-onang.

Zaminday vazminu,

Mehnatkash, mushfiq,

Istagan narsangni tayyorlaguvchi,

Xalq bor-otang bor.

Cho'chima jigarim,

O'z uyingdasan.

Bu erda na g'urbat,

Na ofat,

Na g'am.

Bunda bor:

Harorat,

Muhabbat,

Shafqat

Va mehnat nonini ko'ramiz baham,

Sen etim emassan,

Uxla jigarim.

(T. Rahmatullaev., M.Qodirov. "O'zbek maktablarida milliy tarbiyaning asoslari". Karshi, "Nasaf" nashriyoti. 1996. 44-6).

Taniqli pedagog olim V.A. Suxomlinskiy insonparvarlik haqida shunday degan edi: "Yosh qalblarda yovuzlikka, inson qadr-qimmatining tahqirlanishiga ... qarshi otashin va qat'iy murosasizlik bo'lmasa ... ijobiy qarashlarni qaror toptirib bo'lmaydi...". (Suxomlinskiy V.A. Mudraya vlast kollektiva. Moskva, "Prosveenie", 1975. 199-200 betlar).

O'zbek xalq og'zaki ijodining ajralmas qismi hisoblangan dostonlar xuddi shunday insonparvarlik ruhi bilan yo'g'rilgan etnopedagogik manbalar hisoblanadi. Chunonchi, "Alpomish" dostonida oila va yor uchun, urug' va el nomusi uchun, sevgilisini, yor-birodarlarini, yurtini yovuzlikdan qutqarish uchun kurash tavsif etiladi. Insonparvarlik bilan sug'orilgan voqea-hodisalar Hakimbek va Barchinoy, Qaldirgoch va Qorajon, Boybo'ri va Boysari kabi (personajlar) qahramonlar timsolida ochib beriladi. O'quvchida Suxayl kampirning shumliklari nafrat uyg'otadi. "Rustamxon" dostonida insonparvarlik bilan yovuzlik va kabihlik orasidagi kurash Rustamxonning onasi Huroyimning begunoh o'ldirilishini istamagan xalqning insonparvarona quyidagicha izoh etiladi:

Suxomlinskiy V.A. Mudraya vlast kollektiva. Moskva, "Prosveenie", 1975. 199-200 betlar

*"Senga osilgandir tuhmatning bari,
Begunoh quridi, oyimning sho'ri.
To'rt ming gaz ko'taril Mansurning dori,
Otganda etmasin jallod arqoni*

(Alpomish, Rustamxon. Toshkent. G.Gulom, 1985. 252-bet).

O'limdan qutulib kolgan Huroyim o'z xonadoniga borishdan voz kechadi. Rustam onasining fikriga qo'shilib, zolim otadan voz kechadi va onasi bilan birga qoladi. Ona va bola orasidagi ushbu samimiy muloqotda ajdodlarimizdan meros qolgan insoniy mehr-muhabbat, kattalarga hurmat, muruvvat, avaylash, ularni ranjitmaslik kabi insonparvarlik g'oyalari targ'ib etiladi.

Dostonda Alpomish, Barchinoy, Qaldirg'och, Suqsuroy kabi ijobiy personajlarning (qahramonlarning) mehr-muruvvatga to'la insonparvar to'yg'ularga Suxayl kampir Qalmoq yurti yurtboshlarining yovuz fikrlari qarshi qo'yiladi. Ularning insonparvarlikka zid qarashlari o'quvchida nafrat hissini uyg'otadi. "Sen podshosan, nima qilsang hukming etadi. Murodtepaning qavatidan chuqur zindon qazsang, olib borib zindonga tashlasang (Alpomishni) zax erda besh kun, o'n kun, bir oy, bir yil yotar, chirib o'lib ketar". (Alpomish. Doston. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi: Maxmud Zaripov. Toshkent, "F. G'ulom", 1979. 219-bet).

"Murodxon" dostonida insonparvarlik to'yg'ularini tarbiyalashga qaratilgan fikrlar talaygina o'rinlarda uchraydi. Kishining mehrini qo'zg'aydigan, ko'nglini buzib yuboradigan misralar o'quvchini befarq qoldirmaydi. O'quvchi qalbini zabt etuvchi vaziyatlar asar nihoyasigacha kishini o'z ortidan etaklaydi. Misol uchun, dostonda ota-bobolarimizning sharqona odob-axloqini tasvirlovchi mehmonnavozlik odatlarining badiiy buyoklardagi kuchli ta'siri tarbiyaviy ta'sirchanligi bilan ajralib turadi. Chunonchi, dostondagi ijobiy obraz Ko'lquduq

Alpomish. Doston. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'li. Yozib oluvchi: Maxmud Zaripov. Toshkent, "F. G'ulom", 1979. 219-bet

mamlakatining shohi Oqilxonning do'stlikni g'oyatda qadrlashi, do'stlaridan mol-dunyasini ayamasligi, mashaqqatlar girdobida holdan toygan Murodxonga nisbatan ko'rsatgan mehribonliklarida izzat-ikrom, ko'rsatishda yaqqol ko'zga tashlanadi. Oqilxon do'stidan hech narsani ayamay hotamtoylik qiladi: Murodxonning ko'nglini xushlab, ko'shkiga boshlab .., ostiga palos tashlab, qirquin qiz bekning xizmatida turdilar ... ziyofat ustiga ziyofat, asal ustiga sharbat tortib, maylisini qizitib o'tira berdi. (O'zbek xalq ijodi: Murodxon, Rustamxon. Ko'p tomlik. Toshkent. Badiiy-adabiyot nashriyoti, 1965, 81-85 bet).

"Shirin bilan Shakar" dostoni ham ishqiy, ham insoniy sadoqat, do'stlik, insonparvarlik, qahramonlik ruhini targ'ib etuvchi asar bo'lib, bola tarbiyasi uchun g'oyat qimmatli manbadir. Dostonda bayon etilgan oilaviy bir ziddiyat ota-bola g'avg'osini tahlil etib ko'raylik. Unda ko'pning duosi bilan farzandli bo'lgan Qosimjon firibgarlik bilan tuhmatga ishonadi va Shirin bilan Shakarni o'limga hukm qiladi. Bunday g'ayriinsoniy hukm oddiy xalq orasida norozilik uyg'otadi. Xatto Qosimxonning piri Alovxo'ja eshon ham o'z xo'jasidan yuz o'giradi, oxir-oqibatda o'z taqdirini yoshlar taqdiri yo'lga solib, yuksak insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik namunalarini ko'rsatadi.

Insonparvarlikning bunday namunalarini boshka manbalarda ko'rish, ushbu tahlilni yana davom ettirish, zarur ilmiy pedagogik xulosalar chiqarish mumkin. Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, dostonlar buyuk mamlakatimiz yoshlarida rasmana insonparvarlik hislarini tarbiyalashda g'oyat ta'sirchan vosita bo'la oladi.

Dostonlarning yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdagi pedagogik mohiyati alohida o'rin egallashi shundaki, bolalar eshitgan yoki o'qigan (ertak) dostonlarining kitobxoniga emas, qahramoniga aylanadilar, guyoki dostonda aks etgan qahramonlar o'rnida o'zlarini ko'radilar va shu bilan birgalikda qahramonlardagi yaxshi fazilatlarining egasi bo'lishga intiladilar.

Xususan dostonlarda asar qahramonlarining dunyoga kelishi bilanoq,

O'zbek xalq ijodi: Murodxon, Rustamxon. Ko'p tomlik. Toshkent. Badiiy-adabiyot nashriyoti, 1965, 81-85 bet

yoshlik chog'laridan boshlab oilada, maktabda, oila va maktabdan tashqari olib boriladigan tarbiyaviy tadbirlarning batafsil ko'rsatib o'tilishi xalqimizning amaldagi pedagogik faoliyatini yana ham yaqqol ko'rsatib turibdi.

Xalq pedagogikasi materiallarining ko'rsatishicha, bolalarda insoniy his-to'yg'ularni tarbiyalashning mazmuni kishilarga mehr-muhabbat qo'yish, izzat-hurmat bilan muomala qilish, insoniy xukuklarni himoya qilish, qadrlash kishilar orasidagi uz burchini anglash, odamlarga nisbatan samimiy, halol va rostguy bo'lish kabi dastlabki elementar odob va axloq qoidalarini o'z ichiga oladi.

O'zbek xalq pedagogikasi yoshlarda yuqoridagi kabi ma'naviy fazilatlarni tarkib toptirmoq uchun birinchi navbatda bolalarni o'ziga yaqin kishilarga - ota-ona, aka-uka va oiladagi kattalarga bo'lgan tabiiy muhabbat to'yg'ularini tarbiyalab voyaga etkazish zarurligiga amal qilingani ko'rinadi.

Bundan tashqari xalq pedagogikasida yoshlarni kichik yoshligidanoq jismoniy mashq orqali sportning ma'lum bir turi buyicha alohida kamolotga ega bo'lib etishishi mumkin ekanligi ko'rsatiladi va u doim tarbiyachilarning diqqat markazida bo'ladi. Masalan, Alpomish dostonida Alpomish o'zi xaqidagi hikoyatni Qultoy nomidan gapirganda bunday deydi: "... Men sizlarga burungini ... aytayin. Alpomishning Oltinbey bobosidan qolgan o'n to'rt botmon birichdan bo'lgan yoyi bor edi. Arpalining qo'lida yotib, Alpomish bilan ikkovimiz yoy tortishar edik. ("Alpomish" dostoni, 257-bet.) deyiladi, ya'ni mashq qilar edik, demoqchi. Ana shuning natijasida Alpomish katta va og'ir yoy tortuvchi (otuvchi) pahlavon bo'lib etishadi. Shunday qilib, xalq pedagogikasida insonparvarlik negizida mohirlik, mehnatsevarlik, do'stlik, hamkorlik fazilatlari ham namoyon bo'ladi va shunday qalb egalarini etishtirish asosiy o'rinlardan birini egallagan.

-O'zbek xalq ijodi: Murodxon, Rustamxon. Ko'p tomlik. Toshkent. Badiiy-adabiyot nashriyoti, 1965, 81-85 bet

3.2. Boshlang'ich sinf o'quvchilarini insonparvarlik ruhida tarbiyalash bo'yicha o'tkazilgan tajriba sinov ishlarining psixologik tahlili

Tajriba sinflarida o'tkazilgan darslar davomida ilmiy izlanishlarimiz asosida ishlab chiqilgan, boshlang'ich sinflarning o'qish darslarida qo'llash uchun mo'ljallangan xalq og'zaki ijodining turli ko'rinishlaridan muammoni o'rganishga yunaltilgan qiziqarli didaktik o'yinlardan va muammoli ta'lim elementlaridan foydalanildi.

O'quvchilar bilan ta'lim jarayonida erkin mulokot, teng munosabat, ijodiy hamkorlik o'rnatildi. O'quvchilarning o'z fikrlarini tortinmay aytishlariga, muammolarni mustaqil hal etishlariga imkon berildi.

Tajriba sinov ishlariga jalb etilgan o'qituvchilar bunday darslarni bajonidil o'tdilar, o'z fikr - mulohazalarini bildirib bordilar va keyingi darslarda bu mulohazalar inobatga olindi. Tavsiyalarimiz asosida, jumladan, Kitob tumani 3-maktabning 1-a sinfida (o'qituvchi Hamroeva Maksuda) dosent T. G'offorova boshchiligidagi mualliflar guruhi tomonidan yaratilgan "O'qish" darsligi asosida darslikning xalq og'zaki ijodi bo'limidagi "Sher va sichqon", keyingi darsda "Rostguy bola" mavzularidagi ertaklari o'tildi va shu darslarda doston haqida tushuncha berildi. Shu mavzular orqali "Alpomish" dostoni asosida insonparvarlik g'oyalari singdirildi (2-ilova).

2-sinfda ham o'qish mashg'ulotlarini o'tkazishda o'quvchilarni insonparvar bo'lib etishuvida namuna sifatida "Ertaklar yaxshilikka etaklar" mavzusini o'tish jarayonida ijobiy natijalar kutilganidan ham yuqori buldi.

Tadqiqot jarayonida shu narsa ma'lum bo'ldiki, "Alpomish" dostoni asosida maktabda o'quvchilarni insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik ruhida tarbiyalash imkoniyatlari ko'p va xilma-xil ekan. Jumladan, bu his-tuyg'u, ayniqsa, boshlang'ich sinflarda o'quvchilarga ta'lim jarayonida, sinfdan va maktabdan tashqari pedagogik jarayonlarda singdirilishi mumkin, deb xulosaga keldik. Bu fikr quyidagi dalillar bilan isbotlanishi mumkin:

1. Ta'lim jarayonida o'quv dasturi va rejasida belgilangan mavzular mantiqiga "Alpomish" dostoniga singdirilgan insonparvarlik tarbiyasini bog'lab tarbiya berish; bu hol faqat o'quvchilarga insonparvarlik, do'stlik, hamkorlik tarbiyasi berishga emas, balki ta'lim samaradorligini oshirishga ham ijobiy ta'sir etishi mumkin ekan.

2. Sinfдан tashqari o'qish jarayonida o'quvchilarga insonparvarlik, do'stlik tarbiyasi berish shartlari quqqisdan emas, balki, bir necha kun oldin rejalashtirilib, o'quvchilarga aniq topshiriklar berilsa va ushbu mashg'ulotlarda o'quvchilarga doston turli ko'rgazmalar, texnika vositalari orqali tushuntirilsa, etarli natijalarga erishish mumkin ekan.

3. Maktabdan tashqari tarbiyaviy jarayonlarda ham o'quvchilarga "Alpomish" dostoni vositasida insonparvarlik tarbiyasi berilsa, muhim ahamiyat kasb etishi mumkin. Bu jarayonda o'quvchilar bilan madaniy yurishlar uyushtirish, kinoteatr, teatrlarda dostonning sahnalashtirilgan va ekranlashtirilgan muqobillarini tomosha qilish ijobiy natijalar berishi tajribalarda tasdiqlanadi. Ammo, shuni esda tutish kerakki, madaniy tadbirlar, unga tayyorgarlik, asarning sahnadagi tomoshasi, taassurotlar xulosasi kabi bosqichlarni o'z ichiga to'la qamrab olishi va yozma ish yoki reyting nazorati bilan yakunlanishi zarur.

Sinfдан tashqari pedagogik jarayonlarda:

- a) ijtimoiy ongni shakllantirishga;
- b) ijtimoiy axloqni shakllantirishga;
- v) ta'lim tarbiyalashga odatlanishga o'rgatiladi.

Hikoya, suhbat, o'rnak ko'rsatish metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi.

Ilmiy tadqiqot muammosi yuzasidan maktablarda olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikr-mulohazalari darajalarini bilish maqsadida anketa so'rovlari, test topshiriqlari bilan murojaat kilindi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalari davr talabi darajasida emas. Ta'lim va tarbiya masalasiga birdek ijobiy yondashmaganliklari va o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatilmagani asosiy

kamchiliklar hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va dars ishlanmalari asosida uyushtirilgan tajriba-sinov ishlari kutilgan samarani berdi. Bunday darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishi va tarbiyaviy soat darslarida va tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi, ularda jamiyatda insonparvar halol insonlar bo'lib etishishiga ishtiyoq uyg'otib, bu fazilatlarning shakllanishiga yaqindan yordam berdi.

**Oltinko'l tumanidagi 9- umum talim maktabi Boshlang'ich
sinflarning 3-4 sinflar o'quvchilari bilan o'tkaziladigan anketa
so'rovlari savollari**

- 1. Eng yaqin o'rtoqlaringiz kimlar?**
 - A) sinfdoshlarim
 - B) qo'shnilarim
 - V) yo'q
 - G) yana kimlar

- 2. Odob nimadan boshlanadi?**
 - A)uxlashdan
 - B) kulishdan
 - V)Salomdan
 - G) yozishdan

- 3. Bilmasdan bironni narsasini sindirib qo'ysangiz nima qilasiz?**
 - A)yangisini oladi-da
 - B) kechirim so'rayman
 - V)hech narsa qilmayman
 - G) _____

- 4. Do'stingiz bemor bo'lib qolsa nima qilasiz?**
 - A) uning holidan xabar olaman
 - B) o'zi tuzaladi
 - V) yaxshi bo'ladi
 - D) bormayman

- 5. Sizing sevimli o'qituvchingiz?**
 - A) sinf rahbarim
 - B) mehnat, odobnoma fani o'qituvchisi

V) jismoniy tarbiya o'qituvchisi

G)_____

6. Siz o'qigan doston va ertaklardagi qahramonlarning qaysi fazilatlari ko'proq yoqadi?

A) hiylagarlik

B) yolg'onchilik, makkorlik

V) halollik, rostguylik

G)_____

7. Xalq og'zaki ijodining kaysi turi sizga ko'proq yoqadi?

A) ertak, doston, afsona

B) topishmok, matal

V) qo'shiq, tez aytish

G) _____

8. Oilangizda sizga kimlar doston va ertak aytib beradi?

A) buvim-bobom

B) otam-akam

V) onam, opam

G) hech kim

9. Qanday ertak va dostonlardan parcha o'qidingiz va ulardagi qaysi qahramonlarga o'xshashni hohlaysiz?

10. Quyidagilardan kaysi biri yaxshi odat hisoblanadi?

A) rishqoqlik

B) dangasalik

V) mehnatsevarlik, tejamkorlik

G)_____

- 11. Vatanga munosib farzand bo'lish uchun nima qilish lozim?**
- A) bilim olish kerak
 - B) o'ynash kerak
 - V) sayyohat qilish kerak
 - G) _____
- 12. Insonparvar inson qanday bo'lishi kerak?**
- A) faqat insonlarga yaxshilik qilish, og'irini engil qilishni o'ylaydigan inson
 - B) ko'proq pul topishni, boylik orttirishni o'ylaydigan inson
 - V) chiroyli kiyinadigan, kulib yuradigan inson.
 - D) _____
- 13. Alpomish dostonidagi do'stlik, ahillik, insonparvarlik, ko'proq kim tomondan bajariladi?**
- A) Boyburi, Hakimbek, Barchinoy, Qaldirg'och
 - B) Boysari, Boybo'ri, Maston, Surxayl
 - V) Qorajon, Surxayl, Boysari
 - G) _____
- 14. Alpomish filmidagi qaysi qahramonlarga o'xshashni hohlaysiz?**
- A) Surxayl
 - B) Qorajon
 - V) Alpomish
 - G) _____

NATIJALAR TAXLILI

Oltinko'l Tumanidagi 9- umum talim maktabi boshlang'ich sininflari 3- va 4- sinflarida olib borilgan tadqiqot ishi o'quvchilarni xalq og'zaki ijodiyoti "Alpomish" dostoni yuzasidan o'tkazildi. Bu test bola ruxiyatiga psixologik tasiri

undagi duyoqarashning o'stirishda insonparvarlik g'oyalarining shakillanishida muhim ahamiyatga ega

Oltinko'l tumanidagi 9-umum ta'lim maktabi 3- "B" sinfdagi 24 nafar va 4-" A" dagi 25 nafar o'quvchilarda o'tkazildi

O'quvchi duyoqarashini shakillanganligi uning test natijalarida o'z aksini topadi

10 ballov — agar o'quvchi 10 va undan ortiq savollarga ijobiy javob bergan bo'lsa.

8-9 ballov — o'quvchi savollardagi 6 dan 8 tagacha ijobiy natijani aks ettirgan bo'lsa.

6-7 ballov — o'quvchi savollardagi 3 dan 5 tagacha ijobiy bo'lsa.

0-5 ballov — o'quvchi 2 dan 3 tagacha ijobiy javob bergan bo'lsa

Umumiy natijalar taxlili.

10 ball — juda yuqori.

8-9 ballar — yuqori.

6-7 ballar — o'rtacha.

4-5 ballar— past.

3- "B" sinf o'quvchilari o'rtasida olingan natija 4-"A" sinf olgan natijalar taxlili bilan solishtirilib chiqildi

3-"B " sinf o'quvchilarida o'rtacha va yuqori ball to'plaganlar 73% juda yuqori ball to'plaganlar 20% past natijaga erishganlar esa 5% ni tashkil etdilar

4-"A" sinif o'quvchilarida olingan natija esa quydagicha bo'ladi

Juda yuqori ball 34% yuqori ball 42% o'rtacha ball 21% past natija 3% ni tashkil etdi Ilmiy tadqiqot muammosi yuzasidan maktablarda olib borilgan ilmiy izlanishlar jarayonida boshlang'ich sinf o'quvchilarining fikr-mulohazalari darajalarini bilish maqsadida anketa so'rovlari, test topshiriqlari bilan murojaat kilindi. Natijalar tahlili shuni ko'rsatdiki, o'quvchilarning mustaqil fikrlash darajalari davr talabi darajasida emas. Ta'lim va tarbiya masalasiga birdek ijobiy yondashmaganliklari va o'quvchilar bilan to'g'ri munosabat o'rnatilmagani asosiy

kamchiliklar hisoblanadi. Ilmiy izlanishlar natijasida ishlab chiqilgan tavsiyalar va dars ishlanmalari asosida uyushtirilgan tajriba-sinov ishlari kutilgan samarani berdi. Bunday darslar boshlang'ich sinf o'quvchilarining o'qishi va tarbiyaviy soat darslarida va tarbiyaviy tadbirlarga bo'lgan qiziqishlarini oshirdi, ularda jamiyatda insonparvar halol insonlar bo'lib etishishiga ishtiyoq uyg'otib, bu fazilatlarning shakllanishiga yaqindan yordam berdi natijalar taxliliga ko'ra 3''B'' sinf o'quvchilariga nisbatan 4-''A'' sinf o'quvchilari faol ijobiy munosabat bildirdilar bundan tashqari qiz bolalarning erishgan natijalari o'g'il bolalarga nisbatan yuqoriroq bo'lib qiz bolalarga ertak dostonlar ko'roq tarbiyaviy ahamiyat ko'rsatdi.

PSIXOLOGIK TAFSIFNOMA

- 1- Dostonlarda bidiiyatning muhim usullari – bo'rttirish, ulug'lash, olqishlash, chog'ishtirish, taqqoslash kabilar doston g'oyasining ta'sirchanlini oshiradi va shu yo'l orqali kishida zurrur ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirishga kuchli ta'sir qiladi
- 2- Dostonlarda yaxshilik, adolat, tinchlik, ma'murchilik yo'lidagi kurashlarga qarshi yovuzlik, yovuz kuchlar turli makr-hiylalar ishlatadilar. Yolg'on, fosik, ijobiy qahramonlarni to'g'ri yo'ldan chalg'itish maqsadida jirkanch axloqiy sifatlariga bog'liq ma'lumotlarni ishlatadilar.
- 3- Jamiyatning moddiy asosi hisoblangan, halol mehnat azal-azaldan ulug'lanar ekan, xalq pedagogikasi manbalarida ham unga alohida e'tibor berilgan. Shuning uchun yoshlarga mehnat tarbiyasi berishda ular muhim pedagogik ahamiyat kasb etadi.
- 4- . Dostonlar vositasida maktab o'quvchilariga tarbiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha mukammal tarbiya berish mumkinligi talqin etildi. Xususan, ularda o'quvchilarga aqliy, ma'naviy - axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, iqtisodiy, vatanparvarlik, insonparvarlik, hamkorlik tarbiyasi kabi yunalishlarni amalga oshirishga yordam beradi.
- 5- Dostonda sof ijobiy sevgi-muhabbatgina fozil inson ma'naviy-axloqiy qiyofasini belgilab berishi mumkinligini ehtiros bilan kuylanadi. Bunday insoniy sifatlar yovuz, adolatni sevmaydigan, yomonlikni targ'ib etuvchi kuchlar ustidan g'alaba qiladi.
- 6- "Alpomish" dostoni milliy mafkuraviy tarbiyani amalga oshirishda ham shunday kuchli vosita bo'la oladi. Uning qahramonlari boshdan oxir el-yurt, vatanparvarlik ruhini shaxsiy manfaatlardan ustun qo'yish hissi bilan yo'g'rilgan. Garchi, "Daraxtning etukligi uning mevasi bilan bo'lganidek, insonning barcha
- 7- Alpomish bilan Qorajon orasidagi do'stona aloqalar halol va chinakam insonparvarlik zamirida sinovlardan o'tadi. Ular og'ir sinovlarda, kurashlarda bir-biriga sodiq bo'lib qoladilar. Ana shunday sinovlarda ulardagi

- insonparvarlik, insoniylik xislatlari namoyon bo'ladi. Bu do'stlik, ozodlik, haqiqat, tenglik, nomus uchun kurashda tobora mustahkamlanib boradi.
- 8- Alpomishning kurash yo'lida xotin - qiz obrazlar - Barchinoy, Qaldirg'och, Qalmoq elida Tovka singari ayollar hamkor, madadkor bo'ldilar. Ular Alpomishning qiyinchilik kunlarida u bilan g'amga sherik, yutuqlar va g'alabalarga esa quvonadilar. Shuning o'zi mazkur obrazlar insonparvarlik, odamiylikka yo'g'rilganidan dalolat beradi
- 9- O'quvchilar ongiga "Alpomish" dostoni ijobiy qahramonlarining turli hayotiy muammolarni xal qilishda tutgan o'rni ochib berilsa, bunday pedagogik tadbir tufayli o'quvchilarda hissiy bilim jarayoni tezlashadi. O'quv materialini o'quvchilar xotirasida uzoq vaqt saqlanib koladi. Oqibatda ta'lim samaradorligi oshadi.
- 10- Dostonlarning yoshlarga tarbiyaviy ta'sir o'tkazishdagi pedagogik mohiyati alohida o'rin egallashi shundaki, bolalar eshitgan yoki o'qigan (ertak) dostonlarining kitobxoniga emas, qahramoniga aylanadilar, g'uyoki dostonda aks etgan qahramonlar o'rnida o'zlarini ko'radilar va shu bilan birgalikda qahramonlardagi yaxshi fazilatlarining egasi bo'lishga intiladilar

UMUMIY XULOSALAR.

1. Mamlakatimiz istiqlolining ilk kunlaridanok, yoshlar ta'lim-tarbiyasiga, xususan, iktidorli yoshlarga g'amxo'rlik kuchaydi. "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi xalq ta'limi tizimida keskin burilish yasadi. Prezident I.A. Karimov tomonidan faqat yuksak madaniyatli, ma'naviyatli, ma'rifatli, insonparvar yoshlarga millatni dunyoga ko'z-ko'z qila olishi ta'kidlanmoqda. Yoshlar xalqimiz quvonchi, tayanchi, kelajakdagi madadkori ekanligi uqtirilmoqda. Shunday ekan ana shu tayanch, ishonch, orzularimiz chirog'i yoshlarni yurtimiz va xalqimizga sodiq farzandlar qilib tarbiyalashda Etnopedagogika-etnopsixologiyaning asosiy yunalishlaridan biri hisoblanmish dostonlar, xususan, "Alpomish" dostoni asosida tarbiyalashga e'tibor qaratish muhim ahamiyat kasb etadi.

2. Ta'limdagi yangilanish faqat o'quvchilarga yangicha bilim berishni nazarda tutmasdan, balki jamiyat, davlat, tabiat va mehnatga munosabat tizimini o'zgartirishni ham ko'zda tutadi. Tadqiqot muqaddimasida ta'kid etildiki, hozirgi davrda shaxs va jamiyat munosabatlari dialektikasi muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu jarayonda ming yilliklar osha sayqal topib, bizgacha etib kelgan xalq og'zaki ijodi namunalari hisoblanmish dostonlarning pedagogik qimmati beqiyosdir.

3. Dostonlar vositasida maktab o'quvchilariga tarbiyaning barcha yo'nalishlari bo'yicha mukammal tarbiya berish mumkinligi talqin etildi. Xususan, ularda o'quvchilarga aqliy, ma'naviy - axloqiy, mehnat, jismoniy, estetik, iqtisodiy, vatanparvarlik, insonparvarlik, hamkorlik tarbiyasi kabi yunalishlarni amalga oshirishga yordam beradi.

xalq pedagogikasida eng yuqori o'ringa qo'yilgan. Xalq qahramonlari tasvirlangan asarlarida ijobiy obrazlar har doim o'zligini chuqur anglagan, o'zining o'z xalqining yurti va vatani qadr-qimmatini hamma narsadan ustun qo'ygan. O'zi qon-qarindoshlari, el-yurti Vatani shaniga dog' tushuruvchi elatlarga qarshi kurashgan, ba'zan mardlarcha halok bo'lgan

4. Biz tadqiqotimiz davomida quyidagilarni o'rgandik:

- O'quvchilarda insonparvarlik tuyg'ulariga oid doston va ertaklarning bola tarbiyasida ijobiy xislatlarni kamol toptirishda an'anaviy o'qitish usulidan ko'ra xalq og'zaki ijodidan ko'proq foydalanib o'qitish usulining ustunligini;

- Sinfdan tashqari o'qish darslarida tarbiyaviy soat darslarida dostonlardan foydalanib, o'qitish sinfdagi demokratik xolatning an'anaviy o'qitish usulidan ko'ra ta'sirchanligini;

5. O'tkazilgan tadqiqotlar ham umumta'lim maktablarida o'quvchini mustaqil va sinfdan tashqari o'qish jarayonida xalq og'zaki ijodi, dostonlarni o'rganish jarayoni maqsadga muvofiq ekanligidan dalolat beradi. Tajriba - sinov ishlari tadqiqot farazining to'g'rililigini isbotladi. Ya'ni ta'lim jarayonida o'quvchining mustaqil fikrlashi uchun jamiyatda insonparvar demokratik jamiyat qurishimiz uchun zarur sharoitlar yaratilishi, o'quvchilarning qalbida faqat ezgulik, yaxshilik, insonparvarlik, do'stlik urug'ini sohadigan, ularga o'rgatadigan "Alpomish" dostonidagi ayrim ijobiy qahramonlarni o'qish darsligidagi "Xalq og'zaki ijodi" bo'limlarida o'xshash voqealarda ochib berish, o'qituvchi tomonidan xalq og'zaki ijodiga mehr uygotish, sinfda o'qituvchi - o'quvchi munosabatida "sub'ekt-sub'ekt" munosabatlarining o'rnatilishigina yaxshi samara berishini isbotladik.

6. O'quvchilarga insonparvarlik, do'stlik hamkorlik tarbiyasini bevosita "Alpomish" dostoni vositasida singdirish imkoniyatlari, uning metodlari tadqiq etildi. Dostonda insonparvarlik g'oyasining madh etilishi turfa xil parchalar misolida, personajlar ma'naviy-ahlokiy qarashlari, hatti-harakatlari, hayotiy vaziyatlarga munosabatlariga tayanib tahlil etildi.

7. Insonparvarlik tarbiyasi vositasi xizmat qiluvchi g'oyalar, personajlar tilidan kuylangan baytlarda tarannum etilganligi, bu faqat badiiy obrazlar ichki dunyosi va ruhiyatidan kelib chiqqan fikr emas, balki eng qadimgi ajdodlarimizning asriy orzusi ekanligi ta'kidlandi.

8. Ijtimoiy axloqni tarbiyalash jarayonida turli vositalar yordamida o'quvchilarda insonparvarlik sifatlari odat darajasiga etishga ruhlantiriladi. Bu jarayonda tarbiyalash va o'z-o'zini tarbiyalash vositalari: shaxsiy majburiyat olish, o'z ishi haqida hisobot, o'z hatti-harakatlarini tahlil va nazorat qilish, baho berish

kabi metodlardan foydalaniladi. Mazkur vositalar, metodlarga pedagogik jarayonda yaxlit yondashilsa, o'quvchilarni davr talabiga mos ravishda insonparvarlik ruhida tarbiyalashga erishish mumkin.

9. Ta'lim jarayonida o'qituvchi o'quv dasturi, o'quv rejalari ko'rsatilgan adabiyotlar (darslik, o'quv kullanmalari va b.) bilan cheklanib qolsa, pedagogik jarayon samarasi pasayib ketadi. Shuning uchun o'qituvchi bu jarayonda tez-tez qo'shimcha manbalarga murojat etmog'i tavsiya etiladi. Shunday qo'shimcha manbalar safiga Etnopedagogika-etnopsixologiyaga oid dostonlarni, xususan, "Alpomish" dostonini kiritish mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. O'zbekiston Respublikasi Kostituziyasi-Toshkent: "O'zbekiston",1992. - 48 bet.
2. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni. Barkamol avlod orzusi. - Toshkent: "O'zbekiston", 1998. 20-29 betlar.
3. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod orzusi.-Toshkent: "O'zbekiston", 1998. 31-61 betlar.
4. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim konsepsiyasi. Xalq ta'limi-1992. №2. 9-18 betlar.
5. O'zbekiston Respublikasi umumiy o'rta ta'lim to'g'risida Nizom. Xalq ta'limi-1998. №4. 12-20 betlar.
6. Karimov I.A. O'zbekistonning o'z istiqlol va taraqqiyot yo'li. - "O'zbekiston", 1992.
7. Karimov I.A. Istiqlol va ma'naviyat. - Toshkent: "O'zbekiston", 1995.-314 bet.
8. Karimov I.A. O'zbekiston buyuk kelajak sari. Toshkent: "O'zbekiston", 1998. - 683 bet.
9. Karimov I.A. Barkamol avlod - O'zbekiston taraqqiyotining poydevori. Toshkent: "Shark". 1999. 8-30 betlar.
10. Karimov I.A. Yuksak ma'naviyat – engilmas kuch. Toshkent: O'zbekiston, 2008.
11. Hikmatlar xazinasi. To'plovchi: Azamatov M. Toshkent "Yosh gvardiya". 1979.
12. Abdullaeva Q., Yusupova M, Rahmonbekova S. "O'qish" 2-sinf uchun darslik. Toshkent: O'zbekiston, "O'qituvchi". 2004.
13. Abdullaeva Q., Rahmonbekova S. 2-sinfda o'qish darslari: O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: "O'qituvchi", 2004.-128 bet.
14. Imomov K., Mirzaev., (va boshqalar). O'zbek xalq og'zaki poetik ijodi. Toshkent: "O'zbekiston", 1990.-303 bet.

15. Yo'ldoshov J., Xasanov S. "Avesto"da ta'limiy axloqiy qarashlar. Toshkent. "O'zbekiston", 1991.
16. Yo'ldoshov K- Alpomish talqinlari. Toshkent, Ma'naviyat. 2002.-168 bet.
17. Pedagogika Minavvarov A.Q. tahriri ostida. Toshkent: "O'qituvchi" 1997.
18. Mavlonova R., Turaeva O., Xolikberdiyev K. Pedagogika.- Toshkent: "O'qituvchi" 2001.-510 bet.
19. Ma'naviyat darslari. Tuzuvchi Nishonova S. Toshkent:
20. Ta'lim-tarbiya mazmunini zamonaviylashtirish. Qarshi, «Nasaf», 1997.
21. Tursunov I., Nishonaliev U. Pedagogika kursi. Toshkent: "O'qituvchi" 1997.
22. G'offorova T., Shodmonov E., Eshturdieva G., Ma'sul muharrir: Matjonov. O'qish kitobi 1-sinf uchun darslik.-T:"Shark". 2003-128 bet.
23. Umarova M. 3-sinfda o'qish darslari. O'qituvchi kitobi. Toshkent: "Ijod dunyosi" nashriyoti uyi. 2004.-128 bet.
24. Umarova M., Xakimova Sh. O'qish kitobi 3-sinf uchun darslik. Toshkent: "Ijod dunyosi" nashriyoti uyi. 2004.-238 bet.
25. O'zbekiston mustaqillik odimlari. Umarov N. tahriri ostida. Toshkent: "O'zbekiston". 1995
26. Forobiy. Fozil odamlar shahri. Toshkent: "Meros". 1993.
27. Hasanboeva O. Pedagogika tarixidan xrestomatiyasi. Toshkent: "O'qituvchi" 1993.
28. O'zbek pedagogikasi antalogiyasi. Hoshimov K. boshqalar. Toshkent: "O'qituvchi" 1995.
29. Hasanboev J. va boshqalar. Pedagogikasi tarixi. Toshkent: "O'qituvchi" , 1996.
30. Shojalilov A., Toshmatova G., Matjonov S, Sariev Sh. O'qish kitobi. 4-sinf uchun darslik. Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 2003.-334 bet.

31.G'ulomova X. 1-sinfda o'qish darslari. O'qituvchilar uchun metodik qo'llanma. Toshkent: "Sharq". 2003-128 bet.

32.G'afforova T., Shodmonov E., Eshturdieva G. 1-sinflar uchun darslik.O'qish kitobi. Toshkent: "Sharq". 2003-138 bet.

33. Zunnonov A. Pedagogika tarixi. Oliy o'quv yurti uchun darslik. "Sharq". 2000.

34."Alpomish" dostoni. Aytuvchi: Fozil Yo'ldosh o'g'il. Yozib oluvchi: Zaripova M. Toshkent: T.Gulom. 1979.

35.Murodxon. Rustamxon. O'zbek xalq ijodli. Toshkent: "F.FynoM." 1985. 85-438 bet.

36. Hoshimov K.X. va boshqalar. Pedagogika tarixi. Toshkent: "O'qituvchi", 2006.

37.Mavlonova R., To'raeva O., Xoliqberdiev K. Pedagogika. Toshkent: "O'qituvchi", 2001.-510 bet.

38.Baratov Sh. O'quvchi shaxsini o'rganish usullari. Toshkent: "O'qituvchi", 1992.-62 bet.

39. Zunonov A., Xayrullaev M, Hotamov N., Shodiev D. O'rta Osiyoda pedagogik fikr taraqqiyotidan lavhalar. Toshkent, 1996.-350 bet.

Foydalanilgan saytlar

www.google.co.uz

www.yahoo.com

www.wikipedia.org

www.rambler.ru

www.ziyonet.uz

www.google.com

www.edu.uz

www.gov.uz

www.uz.ref.uz

www.kitoblar.uz

www.uzswlu.uz

www.philology.ru

www.ewiki.info

www.bestreferat.ru


www.studentex.com


www.linguisrlist.org

www.polyglot-language.com


www.kasu.uz

Ko'rgazmalar




Dostonlarda madh etilgan tarbiya yo'nalishlari


Maktabda o'quvchilarga insonparvarlik tarbiyasi berish imkoriyatlari



“Insonparvarlik” tarbiyasi tufayli inson ma'naviy-axloqiy dunyosida tarkib topuvchi sifatlar



O'quvchilarni "Alpomish" dostoni vositasida insonparvarlik ruhida tarbiyalash metodlari



3-SINF O'QISH DARSLIGIDAN 1 SOATLIK DARS ISHLANMASI NAMUNASI

Dars materiali: "Alpomish" dostonidan olingan parcha. Ergash Jumanbulbul o'g'lining rasmi, "Alpomish" dostoni (kitob).

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: Ergash Jumanbulbulning "Alpomish" dostonidan olingan parchani o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: "Alpomish" dostonini o'qish orqali mardlik, jasurlik fazilatlarini o'quvchilar qalbiga singdirish.

Rivojlanpgiruvchi maqsad: o'quvchilarda doston o'qish texnikasi va uning mazmunini hikoya qilib berish mahoratini tarkib toptirish.

Dars metodi: tushuntirish, hikoya, suhbat, ko'rgazmali, mustaqil ish, aqliy hujum.

Darsning borishi:

1.O'tgan darsda utilgan "Donishmand yigit" ertagi yuzasidan o'quvchilar bilimini tekshirish (35-betdagi) savol va javob topshiriqlarga javob olish bilan baholash hamda mavzuni takrorlash.

O'qituvchi o'quvchilardan xalq og'zaki ijodiga doir qanday asarlarni o'qiganligini so'raydi. Tegishli javob oladi. Dostonlar ham o'zbek xalq og'zaki ijodi hisoblanishi hakida gapirib, yangi mavzuga bog'laydi.

2.Yangi mavzu: "Alpomish" dostonini o'qish.

3.Asarni o'qishga tayyorlash: O'qituvchi uchun:

ERGASH JUMANBULBUL O'G'LI

"Alpomish" dostonini (Fozil Yo'ldosh ko'proq) Ergash Jumanbulbul o'g'li kuylagan. Ergashning ota-bobolari baxshi bo'lganlar. Ular ham doston, termalarni kuylaganlar.

Ergash shoirning otasi Juman baxshi juda chiroyli va yoqimli kuylagan. Shuning uchun el orasida Jumanbulbul deb nom olgan. Ergash yuzdan ortiq dostonni yod bilgan. Uning boshqa baxshilardan farqi bor.

Farqi shuki, u maktab madrasada o'qigan, atroflicha bilim olgan. Shoir doston larni kuylashdan tashqari o'zi ham ijod qilardi. Ergash shoirning mehr bilan sevib yod olgan va yozgan asarlaridan biri "Alpomish" dostonidir.

4.Yangi mavzu: "Alpomish" dostoni bilan tanishtirish. O'qituvchi darslikdagi dostonidan olingan parchadan hammasini o'qib beradi.

5.Lug'at ustida ishlash:

Alp-qomati katta, ulkan;

Saboq-ta'lim-tarbiya;

Zurriyodimni-naslimni, avlodimni;

Botmon-og'ir;

O'quvchilar ma'nosi qiyin so'z va so'z birikmalarini izohi bilan daftarlariga yozib oladilar.

6. Dostonni o'quvchilarga qayta o'qitish:

O'qituvchi o'quvchilarga dostonni ichida o'qib, mazmunini va ishtirok etuvchilar nomini eslab qolish vazifasini beradi.

7.O'qilganlar yuzasidan o'quvchilarning tushunchalarini hisobga olish:

8.Aqliy hujum o'tkazish uchun savol va topshiriqlar:

-Dostonda qaysi davr va qaerdagi voqea tasvirlangan?

(Javob: Boybo'ri, Boysari, Barchinoy, Qosim mergan). O'qituvchi esa yozuv taxtasiga bu nomlarni yozib boradi.

-Nima uchun Boybo'ri va Boysari farzandlarini madrasaga beradilar? Qosim kim? U nima ish qildi?

Hakimbek qanday saboqni oldi?

9.Dostonni turli topshiriqlar bilan qayta o'qish va hikoyalatish:

10. O'qituvchi o'quvchilarga matn aniq tushunarli bo'lishi uchun "Alpomish" dostonini umumiy qilib (qo'shimcha) darsliklarida berilganiga qo'shimcha qilib so'zlab beradi.

11.Darsda utilganlarni mustahkamlash uchun oldindan tayyorlab kuyilgan yaxshilik va yomonlikka so'zlar yozilgan varakchalar tarkatiladi va o'quvchilar 2-guruhga bulinadilar. Doska yonida to'rgan partaga yaxshilik fazilatlarini timsolini beruvchi gullar bilan bezalagan (daraxtcha) yasama daraxtcha, yovuzlik esa kurigan daraxtcha kuyiladi. O'quvchilar shu daraxt shoxlariga o'qituvchi aytgan vaqtda ilib kelaveradilar, shuning bilan kaysi guruh o'quvchilari to'g'ri va ko'prok bajargan bulsalar g'olib chikadilar.

12.Mavzuga mos maqollar ustida ishlash:

O'quvchilar mardlik, insonparvarlikka oid maqollar aytishadi va o'qituvchi tomonidan ham 3 ta maqol yozdiriladi.

13.Darsda o'rgatilaganlarni mustahkamlash uchun savollar:

- "Alpomish" sizga yoqdimi? Nima uchun?
- Suxayl kampirning qilgan ishlariga qanday baho berasiz?
- Qorajon qanday do'st bo'ldi?
- Boychibor kimning oti?
- Dostonni o'qib qanday xulosaga keldingiz? - Savollarga javob olish bilan dars yakunlanadi.

13.Uyga vazifa. Dostonni o'qish, yaxlit hikoyalashga o'rganish va mavzuga oid (mardlik, insonparvardik haqida) maqollar bilib kelish;

4-SINF O'QUVCHILARINING O'QISH DARSLIGIGA

DARS ISHLANMASI

Darsning mavzusi: Ilm afzal.

Darsning materiallari: Darslikdagi "Ilm afzal" matni asosida ishlangan rasmlar, so'z kartochkalar, baxtga eltuvchi oq va qorong'u yo'l tasvirlangan rasmlar.

Darsning maqsadlari:

Ta'limiy maqsad: ertakni o'qish.

Tarbiyaviy maqsad: ertakni o'qish davomida ilmning barcha boyliklardan doimo ustun turishini, ilmni sarflagan bilan kamaymasligini, hunar o'rganishni, ilmli, hunarli kishining xotirjamligini, doimo hurmatda bo'lishini tushuntirish, ilmning afzalliklarini his qilishlariga ertak yordamida, doston yordamida erishish.

Rivojlantiruvchi maqsad: Guruh o'quvchilarining o'qish malakasini, savodxonligini, baholanishli nutqini o'stirish.

Dars metodi: Ko'rgazmali, rollarga bo'lib sahnalashtirib o'qish, xikoya, tushuntirish, aqliy (fikriy hujum).

1.O'tilgan darsda o'qilgan "Davlat" ertagini mustahkamlangach, yangi mavzuga tayyorgarlik ishlari natijasi nazorat qilinadi.

2.Kirish suhbat. Ilm haqida, uning afzalliklari haqidagi hayotiy misollar bilan o'quvchilarni ertak o'qishga qiziqtiriladi. Qo'shimcha ravishda o'zbek xalq og'zaki ijodining ertak va dostonlarning ahamiyatini, undagi madh etiluvchi insonparvarlik g'oyalarining ayrim jihatlari aytib o'tiladi.

3. Lug'at ishida ishlash:

Moli - padar, pasi - padar - ota moli o'zi bilan.

Akka-tikka-talon-taroj.

4.Yangi mavzu bayoni. O'qituvchi namuna uchun ertak mazmuni va badiyatiga putur etkazmaydigan tarzda qisqartirib so'zlab berishi mumkin va 3-sinfda o'qigan "Alpomish" dostonidagi Alpomishning ilm olishi uchun

kichikligidanok kirishganligi natijada u ham bilimli, kuchli, aqli, mard, insonparvar bo'lib etishganligini so'zlab o'tadi.

Bu jarayon davomida o'qituvchi obrazga kirib qanday ijro etish kerakligini, ertakda rol ijro etuvchi o'quvchilar yodiga tushirishi mumkin.

So'ng muallif, chol, sakkiz o'g'il va bir qiz rollarini bajaruvchi o'quvchilar ertakni ijro etadilar.

Bunda muallif va chol nutqi, so'zlari ko'pincha uzunligini hisobga olgan holda muallif sahna tashqarisida o'z so'zlarini o'qish, chol rolini bajaruvchi o'quvchiga esa sahna o'rtasida o'tirib, ro'parasiga kitob o'qiyotgan kabi sharoit yaratib darslikni ochib ko'yish mumkin.

Sakkiz o'g'il va bir qiz bajaruvchilar o'zlariga taalluqli jummalarni yoddan ijro qilsalar, ertak ijrosi yanada jonliroq chiqadi va uni o'zlashtirishda o'quvchilarga samarali yordam beradi. O'quvchilarni ertak faoliyatiga o'rgatadi.

5. Savol-javob:

1. Chol qiziga nima deydi?
2. Qiz qanday maslahat beradi?
3. Ota o'g'illariga nima deydi?
4. O'g'illar qanday javob beradi?
5. Qiz qanday javob beradi?
6. Sizga kimning javobi yoqdi? Nima uchun?

6. Matnning asosiy mazmunini aniqlash maqsadida 63-betdan qizning javobi ertak so'nggigacha o'quvchilarga navbati bilan o'qitiladi va sarlavha topiladi. "Oqila qiz javobi" reja tuziladi.

1. Cholning orzusi
2. Qizning maslahati
3. Ota savoli
4. O'g'illar javobi
5. Qiz javobi

qahramonlar haqidagi doston va ertaklardan o'qib yoki eshitganlarini so'zlab berish.

10.Kundalik va lug'at daftari ustida ishlash. Keyingi "Ovchi Ko'kcha va dono" ertagini o'qish uchun oldindan berilgan topshiriqlar asosidagi tayyorgarlikni kuchaytirish. Bu ertaklarni o'qish jarayonida "Alpomish" dostonidagi insonparvarlik, do'stlik tuyg'ularini shakllantirish, o'qituvchi ijodiyligi bilan ularni yanada boyitish mumkin.